

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi

Abdulla Qodiriy
nomidagi
Fiod maktabi

o‘quvchilarining ijodidan
namunalar

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2024

UO'K 373.5.014(575.1)

KBK 74.2(50')

M 26

Loyiha rahbari

Hilola Umarova

Mardonova, V.

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi [Matn]: to'plam / V. Mardonova [va boshq.]; muharrir S.Nazarov. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 168 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalarida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

UO'K 373.5.014(575.1)

KBK 74.2(50')

ISBN 978-9910-9138-0-8

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2024



Abdulla Qodiriy ijod mакtabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tаhsil оlayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



ABDULLA QODIRIY
NOMIDAGI
ijod maktabi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
tashabbuslari bilan yosh avlodni
vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga
vorislik ruhida tarbiyalash,
zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda
badiiy adabiyot va boshqa ijod
sohalarida jahondagi tengdoshchlari
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor
shaxsni shakllantirish maqsadida
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod
maktabi tashkil etilgan.



Visola Mardonova

7-sinf o‘quvchisi

JADIDLAR

Xotiri xalqining qalbida abad,
El-u yurt yo‘lida qurboni jonlar.
Jaholatga qarshi kurashgan jadid –
Abdurauf, Qodiriy-u Cho‘lponlar.
Qo‘rqmadi tahdid-u hatto o‘limdan,
Kitobi yoqildi ko‘zi o‘ngida.
Taslim bo‘lish nedir, bilmadilar hech
Mudom yashaydilar xalqim ko‘nglida!



**Jayronabonu
Rustamova**
7-sinf o‘quvchisi

ONA

Boshimni silagan qo‘llari mayin,
Ko‘z yoshim aritgan so‘zlari gavhar.
Balodan asragan duolari bor,
Kechalari yorqin charog‘im – onam.

Qornim och-to‘qligin so‘raysiz har on
“Ust-bosh olib beray, yuraqol, bolam”.
Hayotning eng yaxshi damlari menda
Chunki siz yonimda borsiz, onajon!

* * *

Chehrasi gul onam, ko‘ngli yarimta,
Onamning xayoli bizlarda doim.
Farzandlar rohatin ko‘rsin, albatta.
Izzat-e’tiborda yursin, ilohim.
Quvonchim egasi yolg‘izim, baxtim
Umrini ziyoda qilgin, Allohim!





**Nurmuhhammad
Hasanov**
8-sinf o‘quvchisi

KUZ

Kuz – ko‘zimni yoshlagan yagona fasl,
Sarg‘aygan barglari yopar ko‘zimni.
Shoirlarni o‘ziga joylagan qasr
Faqat u eshitar mening so‘zimni.

Kuz yomg‘iri yuvar barcha illatim.
Daraxtlar – she’rlarim kabi sarg‘aygan.
To‘kilgan yaprog‘i vijdon kabi jim,
Kuz – qora qarg‘adir bahor qarg‘agan.

Kuzda tug‘ilganim ayni haqiqat,
Lekin bu sababmas yaxshi ko‘rmoqqa.

O‘ylarman, balki shu kuz qodirdir faqat,
Meni bu dunyoda ushlab turmoqqa.

FALSAFA

Yashash og‘ir, hayot beshafqat.
Tiriklik ma’nosi – imtihon.
Gar hayoting mazmunsiz bo‘lsa,
Bilki, kelgan ekan intiho.

Odamlar gapiga qayg‘urma,
Javobsiz qolmaydi hech bir ish.
Faqat sen o‘zingga to‘g‘ri bo‘l,
O‘zgani deb chekmagil tashvish.

Bebaho umrning har bir lahzasi,
Behuda sarflama biror bir oning.
Yaxshi amal bilan bezagin uni,
Toki salomat bo‘lsin iymoning.

Barcha baxtiyor bo‘lar,
Shodon, xushruxsor bo‘lar,
Quvonchdan o‘ynab-kular,
Essa bahor nafasi.



**Shabnam
Ixtiyorova
8-sinf o‘quvchisi**

SUKUT – OLTIN

Sukut saqla, ey mo‘min inson,
So‘zning ko‘pin nima qilasan?
O‘ylab gapir har qavl-u lison,
Sukuting-la izzat toparsan.

So‘zlarimdan ranjigandirsan,
Balki jahling chiqqani rostdir.
Ko‘p so‘ylashga o‘rgangansan lek,
Tinglash esa komillikka xosdir.

Sukut saqla, ey do'st-birodar,
So'z qiymati oltin, zarhaldir.
Balki barcha gaplaring a'lo,
Lek sukut baridan go'zaldir.





Najiba
Xudoyberdiyeva
8-sinf o‘quvchisi

BOBOLAR YODI

Vatanga quzg‘unlar hujum qilganda,
Mardlar o‘z ko‘ksini ayladi qalqon.
Jaloliddin bobom Sayxundan kechib,
Chingizxon qo‘shinin ayladi yakson.

Temur bobom butun jumla jahonni,
Fath etdi, ko‘tardi islom yalovin.
Men oddiy bir qizman, qalbimda har on,
Sezaman ularning kechgan olovin.

Abdulla Qodiriy nomidagi *God maktabi*

Tuprog‘in gardiga ming jonim fido,
Olib ko‘zlarimga qilay to‘tiyo.
Ajdodlarim ruhi bo‘lsin madadkor,
Allohim, aylama Vatandan judo.





Xadichabonu
Abdurahmonova
8-sinf o‘quvchisi

JADIDLARIM

Nurdan porlab soyalarga ketgan botib,
Yosh boshiga balo bo‘ldi she’rlar bitib.
Manzillari surgun bo‘ldi oxir yetib,
Ozod elni orzu qilgan jadidlarim.

Qodiriyni siqib-siqib ichdi suvin,
Yosh umrini shundoq berdi Usmon tekin.
Fitrat, Cho‘lpon – u ham egdi sho‘rlik boshin,
Ozod elni orzu qilgan jadidlarim.

Sho‘rolarning so‘rog‘idan charchaganlar,
Oqshomlari osmonlarga termilganlar.
Kelajakka ma’rifat-la yo‘lin solib,
Ozod elni orzu qilgan jadidlarim.

Ming urinib qilolmadim hech tafakkur,
Nechun dedim, ilm ahli haqsiz o‘lur?
O‘shal zamon yoki xalqning ko‘zлari ko‘r,
Ozod elni orzu qilgan jadidlarim.

Kishanlarga bandi bo‘lgan esiz umri,
Borida bor, yo‘g‘ida-chi, yo‘qdur qabri.
Behbudiylar, Avloniylar singan sabri,
Ozod elni orzu qilgan jadidlarim.





**Doniyorbek
Ergashev**
8-sinf o‘quvchisi

O‘ZBEKMAN

Men o‘zbekman, o‘zimga bekman,
Bundan faxr-sharafdir menga.
Xorazmlik buyuk sarkarda,
Manguberdi avlodidanman.
Men o‘zbekman, o‘zimga bekman,
Mag‘rur yurish yarashar menga.
Men jahonda buyuk sarkarda,
Amir Temur avlodidanman.
Manguberdi soldi hayratga,
Chingiz unga tan berdi hatto.
O‘zin qildi qurban Vatanga,

Sirdaryoga sakradi, ammo.
Temur qilich ko‘targan zamon,
Tumtaraqay yovuz har tomon.
Jaloliddin yurganda otda,
Mehr ila qarar har ota.
Bizlardadir ularning ruhi,
Jasorati tomirlarda bor.
Men Temurman – Turonning faxri
Jaloliddin – xorazmlik sor.
Amir Temur qoldirgan meros,
Bu bizdagি kuch va qat’iyat.
Va undagi mardlik va quvvat,
Ruhimizga singgan toabad.
Men o‘zbekman, o‘zimga bekman,
Doim mag‘rur, egilmas boshim.
Shu Vatanda yasharkanman va
To‘kilmaydi bir tomchi yoshim!



**Shalola
Shakarova**
8-sinf o‘quvchisi

ORZU

Ko‘kdan tinmay tomchilaydi baxt,
Siypalaydi yanoqlaringni.
Ko‘zlariningda tovlangan shu nur,
Yaqin qilar yiroqlaringni.

Qor taftidan kuyadi qo‘llar,
Tana bo‘ylab Yugurar sog‘inch.
Xotiralar mavjlangan chog‘da
Topilmaydi hech qanday ovunch.

Tezlataman qadamlarimni,
Kechikmaslik uchun maktabga.
Qani endi har qanday hisni
Moslashitura olsayding ta'bga.

Shahriyor Shavkat she'riga nazira

“Sollanar shotutning barglari,
Shaharning uyqusi bug‘lanar”¹.
Avtolar Yugur sarsari,
Yulduzlar quyoshga suqlanar.

Koinot yamlamay yutadi
To‘dadan ajragan bulutni.
Daraxt bag‘ridagi yaproqni
Kuz kelishi bilan unutdi...

¹ Shoir Shahriyor Shavkat misralari.



**Dilnoza
Nortojiyeva
8-sinf o‘quvchisi**

ONA TILIM

(Rasul Hamzatov she’riga o‘xshatma)

Ichirdi yolg‘izlik qizil sharobin,
Uzoq yo‘l, ketmoqqa mador qolmadi.
Bo‘ldilar qalbimda men uchun xudbin.
Sindirdi, ammo hech ruhim o‘lmadi.

Yuz o‘girdi mendan ziyo chirog‘im,
Yomon ish qilmadim, aslo ko‘rmadim.
Yozaman desam, gar qolmas siyog‘im,
Ko‘rmoq uchun endi nurim qolmadi.

Cheksiz chakalakzor darasidaman,
Yuray desam qo'ymas chaqirtikanlar.
Eshitarman faqat bir inson dardin,
Yig'lasam suv ichib o'sar tikanlar.

Bedarak shamollar kelar ba'zida,
Izillab go'yo bir keltirar xabar,
Nahotki uni ham ko'p ko'rgan bo'lsang,
Kechirgin, ey hayot, kechirolsang gar.

Endi na ko'rарman, na eshitarman,
Faqat menga sodiq qoldi jon tilim.
Men bilan tug'ilgan, menga hamroh-u
Men uchun qadrdon sen bo'lding, inim.

Sen qolib vafoni isbotlay olding,
Sen bilan tirikman, sen hayot suvim.
Dong'i Dog'istonda baland taralgan.
Mening mehrigiyom, sen, ona tilim!

ONA

Ona, yana yog'di o'sha qorparcha
Asli qormas, mehnatkash xalqning,
Butun kuz egilib tergan paxtasi.

Ona, esingizdami eski uyimiz,
Zumrad qish faslida to'shab berganingiz
Momom sovg'a qilgan oppoq ko'rpacha.

Bugun menga kerak qaynoq taftingiz,
Uyimdan uzoqda shu qadar sovuq,
Mitti qalbim yana muz qotdi, ona.





**Marjona
Eshqulova**

8-sinf o‘quvchisi

NOYABR

Sekin pichirlaydi menga namozshom,
Go‘dak uxlatalayotgan ona singari.
Bu shahar bir meni ovoz chiqarmay
Yamlamay yutadi zulmatlar kabi.

Metro guvullaydi tongdan tungacha
Hech bir bekat meni yupatolmaydi.
Odamlar ichiga o‘zimni urib,
Yig‘lagim keladi, negadir...

Yana ko‘z yumaman tunda bariga,
Ichimda quriydi hislar o‘zagi.

Noyabr poygakka nigohin qadab,
Qo'llarin silkitar shunchaki.

MEHR

Diydalarning chuchuk yoshlari
Sug'ormoqda tinmay qalbimni.
Ta'mirlarsiz qolgan tuyg'ular
Totganmikan yashash ta'mini?

Dudoqlarim pichirlab deydi:
“Biroz qadrlangiz meni ham”.
Lek sheriksiz qolganin bilib
Mujgonlarim bo'lar yana nam.

Yaxshiliklar tugadi bugun,
Afzalrog'i balki ertaga.
Qaboq ko'zning rangini to'sib,
Bosh teksaydi bitta yelkaga.



**Shahzoda
Orifjonova**
9-sinf o‘quvchisi

NOLA

(“*Ikki eshik orasi*” Robiya tilidan)

Qaydan keldi urush degan nom,
Ayrildikmi bir-birimizdan.
Umidimni uzmadim hamon,
Ammo xabar kelmaydi sizdan.

Xatingiz o‘qidim hayajonlanib,
Kimsan akam tirik, deya quvondim.
Tushimga kiribsiz “Robiya”, deya,
Ko‘zlarimni ochib, yig‘lab uyg‘ondim.

“Kutgin, kutasan-a”, degan so‘zingiz,
Hamon jaranglaydi quloqlarimda.
Iltijo-la boqqan ma’yus ko‘zingiz,
Har on yodimdadir, nighohlarimda.

Kutdim, kutaverdim, kelmadingiz-ku,
Nechun xabar kelmadi sizdan.
Axir Robiyani o‘ylardingiz-ku,
Kechiring, umidim uzildi sizdan.

Majbur bo‘ldim umid uzmoqqa,
Achinmadim hatto qadrimga.
Kimsan akam kelmadi qaytib,
Erisha olmadim kutgan baxtimga.

Men o‘sha – Robiya, yorini kutgan,
Yorim unutmoqqa bormi jur’atim.
Umidim uzilgan, go‘yo men o‘lgan,
Yerda qolib ketdi quruq suratim.



**Disraboxon
Nurmuhhammadova
9-sinf o‘quvchisi**

AJDODLAR SIYMOSI

Ajdodlar izidan bormoqdir sharf,
Ammo oson emas sharafli bo‘lmoq.
Ming yillar qa’ridan keladi sado
Avlodlar kelajagi bo‘lgusi porloq.

Ajdodlarning ruhi, ular siymosi
Har bir yosh avlodda yashamoqdadir
Birimiz Navoiy, birimiz Bobur
Temur bobom so‘zi: “Kuch birlikdadir!”

Ajdodlar ruhini doim etib shod,
Ado etmoqdamiz buyuk burchimiz.
Amir Temur bobom aytganlaridek,
Birgalikda doim bizlar kuchlimiz.

Qo‘lga qalam olgan har bir yosh avlod,
Bilingki, Navoiy avlodidandir.
Vatan-chun shahid ketgan o‘g‘lonlar,
Biling, ular asl Temuriylardir.

Buyuk allomalar, shoir, olimlar,
Qo‘lda qilich bilan turibdi Temur.
Qo‘lga qalam olib she’r bitsa Foniq,
Bizga ishonch bilan boqmoqda Bobur.



Xolida
Eshpo'latova
10-sinf o‘quvchisi

MAKTAB DAVRI

Baxtli bolalikning shirin onlari,
Sening quchog‘ingda o‘tmoqda maktab.
Ustozlar sohasin bilimdonlari,
Yuraman olqishlab har yerda maqtab.

Do‘stlarim har biri o‘zicha dono,
Xayolan sir to‘la osmonda uchar.
Bilimsiz hech yerda topolmay ma’no,
Qo‘lida kitobni quchoqlab yurar.

Yuguramiz maktab hovlida,
To‘polonlar qilamiz gohi.
Ustozlarning munis qalbida,
Deydi kulib: “Bolalik podshoh”.

Opajonlarim
Quyosh nurlariday qaynoq mehrli,
So‘zлari purma’no, hatto sehrli.
Chehrasida kulgu, yuzlari nurli,
Sizlar bilan butun doimo ko‘nglim,
Boringizga shukur, opajonlarim.

OPALARIM

Shoyi ipak yarashadi egningizga,
Oymomo ham havas qilar o‘zingizga.
Tog‘da toshlar erib ketar so‘zingizga,
Doim shodon yoningizda jon dillarim,
Boringizga shukr deyman opalarim!

Hol so‘raysiz dildan suyib qarindoshdan,
Ahvolini bilay deysiz yot qardoshdan.
Qadoq qo‘llar gul undirar tog‘-u toshdan,
Sizlar bilan mehr to‘la ko‘ngillarim,
Boringizga shukur, jon opalarim!



Bahodir
Ubaydullayev
10-sinf o‘quvchisi

QURILISH

Qurilishi bitmagan
Bitta bino qulabdi.
Qurilishning boshlig‘i
Bir quruvchiga debdi:
“Armatura aybdor
Binoning qulashiga”.
Quruvchi tez keltirdi
Uni boshliq qoshiga.
— Binoning qulashiga
Sen aybdor bo‘lgansan!

– Yo‘q, boshliq, men mustahkam,
Zo‘r temirdan bo‘lganman.

– Unda qumni chaqiring,
Kelsin tez men tomonga.

– Kelolmaydi u boshliq,
Ketib qolgan plyajga.

– Xo‘p, shag‘alni chaqiring,
Kelsin tez men tomonga.

– Axir u ishlatilgan,
Uyingizdagи betonga.

– Unday bo‘lsa chaqiring,
G‘isht va do‘siti betonni.
Bino qulagandan so‘ng
G‘ishtlar eson-omonmi?

– Hozir bilib kelaman,
Masala yechimini.
Aniqlab ham kelaman,
G‘ishtlarning kechimini.
Quruvchi tez bordi-yu,
Bildi qulash sababin.
Bu binoda yo‘q ekan
Na bir g‘isht va na beton.

SAYOHAT

Sholg‘om, piyoz, sabzivoy
Sayrga yo‘l olishdi
Bir ariqqa duch kelib
O‘ylanishib qolishdi.
Sholg‘om shoshilmay dedi:
– Ko‘prik qurib o‘tamiz.
Nasib etsa hammamiz
Bir manzilga yetamiz.
Sabzi o‘tganidan so‘ng
Navbat sholg‘om “oriqqa”
Sirpanib ketib shu payt
Tushib ketdi ariqqa.
Piyoz shunda hovliqib,
Botdi qayg‘u va g‘amga.
Intilib do‘sti tomon
Oshiqardi yordamga.
Ammo sabzi yo‘l to‘sib
– O‘zingni asra, dedi.
Semiz edi Sholg‘omvoy,
Mana ta’zirin yedi.
Ikkalasi yo‘l yurgach,

Do'stdan topmadi e'zoz.
Paykalning orasida
Yo'qolib qoldi piyoz.
Xaxolab kular Sabzi:
Yo'l yurishni bilmas, deb.
So'ng yurardi o'ziga,
Berib oroyish va zeb.
O'tloqdan o'tar chog'i
Oldidan chiqdi quyon.
Qulog'ini o'ynatib
Dedi: "Qandaysan, jiyan?
Yolg'iz yurib qaygacha
Borar eding?" – dedi u.
Keyin esa sabzini
Mazza qilib yedi u.



**Madina
Azizova**
10-sinf o‘quvchisi

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI

Yangiliklar har bir qadamda,
Yaxshi niyat har bir odamda.
Harakatni boshlang shu damda,
Ey Vatanning oy, quyoshlari –
Ijod maktabining yoshlari.
Berilgandir juda ko‘p imkon,
Yurtboshimiz qo‘llaydi har on,
Kelajakni quradi ishon!
Tabiiylik, aniqlik shartlari –
Ixtisoslik muktab yoshlari!
Zamonaviy bilimlar bisyor,
Kim o‘rgansa, unga omad yor.

Ota, ona, ustoz baxtiyor,
Yuragi tog‘, mag‘rur boshlari –
Xorazmiy maktabin yoshlari.
Doim samolarni ko‘zlaydi,
Har qadamda ilm izlaydi.
Vatan deydi, haqni so‘zlaydi,
Gullatadi giyoh, toshlarni –
Ulug‘bek maktabin yoshlari.
Ijod ummonida suzadi,
Qodiriydek roman yozadi.
Qissa bitar, devon tuzadi,
O‘zbekniki ko‘z-u qoshlari –
Qodiriy maktabin yoshlari.
Tinim bilmas, qilar harakat,
Aslo yo‘liqtirmas falokat,
Yurtni qilar eng buyuk davlat!
Buyuk bobolar izdoshlari —
Sinolar maktabi yoshlari.
Yuragida yuz ochgay bahor,
Niyati pok, adolatga yor,
Kelajakka qo‘ygay poydevor,
Elga xizmat qilmoq ishlari –
Prezident maktabin yoshlari!



**Komila
Abdug'aniyeva
10-sinf o‘quvchisi**

MEHR

Pul dardidagi gulchi,
Gullarga mehr tuymas.
Tezroq sotilsin deya,
Hatto erkalab suymas.

Hayot degan ne’matni,
Xudo bergen hammaga.
Barcha jonzot haqlidir,
Suyish, mehr, daldaga.

Faqat yo‘qdir ularda,
Aql, zabon, tafakkur.
Silab-siypab qarasang,
Albat aytar tashakkur.

Dunyo yashar mehr-la,
Hech narsani qilma xor.
Shuni yoddan chiqarma,
Ularning ham joni bor.

NAVOIYNI O‘QIB

Zamonlar oshibon Hirot yo‘liga,
Navoiy yaratgan asarlarga boq.
Pandnoma, nasihat, ishqning dostoni,
Buyuk zot avlodi bo‘lamiz, o‘rtoq.
“Hayrat ul-abror”dan boshlanib “Xamsa”,
Farhod-u Shirinlar sof ishqni o‘rnak.
Layli va Majnunning o‘qib qissasini,
Qiynaldi, tirnaldi, poradir yurak.
Shoh Bahrom ovini eshitsang hayrat,
Sochiga bog‘langan Dilorom qani?
Faylaqus asragan o‘g‘ilga bay’at,
Rum erur alarning asl vatani.

Farhod va Xusravning suhbatin tingla,
Majnunning Ka'bada iltimosi bor.
Hayoti go'zaldir Dilorom birla,
Iskandar qurdirdi buyuk bir devor.





**Gulira'no
Anvarova
11-sinf o‘quvchisi**

KELAJAK

Olamda yulduzlar nur sochar hamon,
Demak, davom etar ilm yo‘llari.
Shu yo‘lda jamuljam qadam tashlasak,
Omadga to‘ladi o‘ng-u so‘llari.

Yuksalish zarurdir kelajak uchun,
Turgin, davom etgin, to‘xtading nechun?
Avlodlar umidi, ajdodlar ruhi,
Barchasi sen bilan, sen bilan ochun.

Islohotlar qurdi ravon yo‘llarin,
Borar manzil aniq, maqsadlar aniq.

Qo‘ldan kelar ochish dunyo sirlarin,
Agar dilda bo‘lsa shijoat yoniq.

Tamom, tur, davom et, to‘xtama hech ham,
Toki madadkordir Navoiy, Bobur.
Istagim bo‘lmasin yo‘lingda hech kam,
Ilm ol, izlangin, barchasi jamdur.





**Gulshoda
Do'sanova
11-sinf o'quvchisi**

UCHINCHI RENESSANS

Uchinchi Renessans – “Yuksalish davri”,
Kelajak avlodga ochmoqda yo‘lin.
O‘qi, intil deya maqsadlar sari,
Dadil ishonch ila cho‘zmoqda qo‘lin.

Har neni xohlasang, topasan imkon,
Islohotlar katta, keng dunyoqarash.
Talpinib yangilik, yutuqlar tomon,
Maqsad shu Vatanning koriga yarash.

Ajdodlar shamshiri tushmasin qo‘ldan,
Avlodlar ishonchi bo‘lsin mustahkam.

Baland cho‘qqilarga bo‘y cho‘zgin deya,
Ta’lim poydevori qurildi mahkam.

Talay imkoniyat barcha jabhada,
Chorlamoqda ulkan, olivy safarlar.
Vaqtি keldi, yuksal har bir sohada,
O‘zbekning farzandi quchsin zafarlar!





**Gulasal
Omonova
11-sinf o‘quvchisi**

USTOZ

Yana shu qo‘limga tushdi-yu qalam,
Ustozim madh etmoq istadim tag‘in.
Qalbimni o‘rtadi shu payt bir alam,
Ustozim qadrini bilmadimmikin?

Navoiy so‘zini bilmasdum asli,
Vatan deb o‘ylardim dala-qirlarni.
Siz sabab bildim men Navoiy nasli,
Siz uchun bitaman endi she’rlarni.

Og‘ir damlarimda siz menga madad,
Bu g‘arib ko‘nglimning sизsiz darmoni.

Yoddan chiqarmasman abadulabad,
Siz borsiz, ko‘nglimning yo‘qdir armoni.

Ko‘kda porlab turgan quyoshimsiz siz,
Men sizga talpingan bir nihol misol.
Yodda saqlayman har aytgan so‘zingiz,
Siz mehribon, go‘yo onamdek timsol.

She’riyat yo‘lida tashlayman qadam,
Shoirlar ichida xayolchan o‘zim.
Yaxshi qadrin bilmas hayotda odam,
Yonimda siz borsiz, gulgundir yuzim.

She’rda uchrar balki kemtik va yo kam,
Ne bor bu dunyoda kemtiksiz o‘zi?!
Ustozim, yonimda bo‘lingiz har dam,
Sizga hadya etgum shogird dil so‘zi.



Zahro
Sa'dullayeva
11-sinf o‘quvchisi

ONA TILIM

O‘z millat tilidan uyalgan o‘lik,
Seni bilmaganlar chorasisiz daydi.
Shunday shirinzabon o‘zbek tilimsan,
Sening badalingni to‘lab bo‘lmaydi.

Nega ermak qilgan seni odamlar?!
Nega o‘zlaridek so‘zlari taxir?!
Men nega tilimga bo‘lmadim qanot?!
Mendan umidlaring ko‘p edi, axir.

Seni tahqirlashdi vijdoni yo‘qlar,
Kambag‘al til deya qildilar judo.

Bu kun o‘zbek tili jahon sahnida
Jaranglashin nasib etibdi Xudo.

Sening madhing kuylab o‘qisam, yozsam,
O‘zgacha tarovat sezadi dilim.
Sen-la so‘zlashganda yashnaydi vujud,
Bobolardan meros mening jon tilim.

Navoiy yodisan, Nodira shoni,
Madhingni kuylashga turibdilar shay.
Tilim bugun sen-la hur O‘zbekiston,
Mag‘rur so‘zlayapti ozod odamday.





**Maftuna
Bobomurodova
11-sinf o‘quvchisi**

MOYCHECHAK

Bunchalar go‘zalsan, bunchalar xushro‘y,
Quyoshda tovlanib turarsan kulib,
Olamga taratgan hidlaring xushbo‘y,
Bilmam, seni qanday qoldim men sevib.

Tikilib qarayman senga, moychechak,
Seni ko‘rsam, oshar ko‘nglim huzuri,
Bog‘ga kirayin va teray bir etak,
Ko‘nglimni yoritgan nurisan, nuri.

Seni ko‘rmoq uchun kutdim bahorni,
Suratingni ko‘rib goho o‘yladim,
Turli xil gullarni sevdim-u, ammo,
Gullar ichra seni tanho sanadim.

“HOLBUKI, TUN...”

(*Hamid Olimjon she’riga nazira*)

“Shag‘irlaydi betinim daryo,
Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar”,
Yurak sirin ochganday go‘yo,
Oy ham bugun menga yaltirar.

Holbuki, tun ololsa dardim,
Holbuki, tun taskin bersaydi,
Xayollardan bor faqat qasdim,
Borlig‘imda jisming yashaydi.

Ko‘zni tikdim mitti yulduzga,
Balki, u ham sirlarga guvoh,
Hech to‘xtamay biz yo‘limizda,
Davom etsak bo‘lurmu gunoh?

Yana davom etmoqda jimlik,
Sho‘ng‘ib ketdim cheksiz orzuga,
Biz ham bir kun o‘ynagan edik,
Shu sokin tun “madh etgan” kuyga.

“Shag‘irlaydi osmon va havo,
Shag‘irlaydi butun koinot”.
Bizda hamon yangraydi navo,
“Raqs tushishdan” to‘xtamas hayot.





**Gulсанам
Mahmarajabova**
11-sinf o‘quvchisi

BAHOR

Qishning muzli qahratonin yengib yana,
Kirdi bahor gullar bilan yetaklashib,
O‘z husni-la har tarafni bezaguncha,
Qaldirg‘och ham yetib keldi galalashib.

Endi bo‘lsa bu olamga sepin yoyib,
Ul sepiga lolalarni tikib chiqar,
Xuddi rassom bo‘yoq bilan chizganidek,
Yer yuziga gulistonni bitib chiqar.

So‘ng o‘rnini bo‘shatadi issiq yozga,
Shunday qilib vazifasin tugatadi.
Koinot ham navbahorni ma’lum muddat,
Olis-olis yurtlariga kuzatadi.

KIPRIKLAR

Simlardagi turnaqator qushlar kabi,
Ikki qator yo‘lakchaga tizilishgan.
Oq daryoda qora yelkanli kemani,
Goh yashirar, gohda erkin suzdirishgan.
Quyi qator qushlar ancha quyuqdir-u,
Pastki qator shamol bilan uchirishar.
Hokim jonzot xohish bersa baski, bo‘ldi,
Ona-bola shodlik ichra diyord ko‘rishar.



**Ruxshona
Meymonova**
11-sinf o‘quvchisi

* * *

In the celebration of thirty-one years,
Our Constitution, a source of pride and cheers.
In the heart of Uzbekistan, where unity thrives,
A nation in peace, as its Constitution survives.
Freedom and justice, the pillars so strong,
In the Constitution, where we all belong.
The years have passed, a tranquil nation we've built,
On the path of our Constitution, as our ancestors
willed.
Independence we cherish, in Uzbek's embrace,
Liberty, tranquility, a harmonious grace.
The values within us, a guiding light,

On the Constitution's path, our future so bright.
In the pursuit of justice, we stand tall,
With dreams and aspirations, as our own call.
As the years unfold, in peace, a revered state,
The Constitution's legacy, our shared fate.
On the 31st anniversary, let's celebrate,
The Constitution's role, a tale so great.
Our homeland, resilient in independence,
A beacon to friends, in justice's defense.





Soliha
Abdusositova
7-sinf o‘quvchisi

QATRALAR

Menga bir do‘stim chiroyli, qimmat hamyon sovg‘a qildi. Ammo unga solish uchun pulim yo‘q.

* * *

Bunchalik chiroyli bu nozik barmoq
Ammo nega doim ushlaydi qarmoq?!

* * *

- Yoshligingizni qanday eslaysiz?
- Teshik, ichiga patak solingan etik bilan.



**Zakiya
Xodjayeva**
7-sinf o‘quvchisi

ZAMONAMIZNING ADOLAT TUZUGI

(Publitsistik maqola)

Tarixni o‘rganar ekanmiz, davlatni adolat tuzugi bilan boshqarish masalalari azaldan buyuk qomusiy olimlarimiz nazaridan chetda bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur asarlarida davlat adl ila boshqarish lozimligi haqida qarashlar mayjud.

Adabiyotimiz peshvosi Navoiyning fikricha, odamzod aro nomi qolib, oti yuzlarcha shohlar otidek qolsa ajab emas. Olam bani Odam bilan,

bani odam olam ichida ekan, adl bilan olam yuzini obod qil:

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.
Hukmung aro olam-u odam dog‘i,
Yo‘qli, bu iki yana olam dog‘i.

Navoiy hazratlariadolatni inson ismini to qiyomatga qadar muhrlovchi muhim jihat deb ta’kidlamoqdalar. Albatta, bu bejiz emas.

Jamiyat, undagi kishilik munosabatlari bor ekan, uning nizomini tartibga solish talab qilinadi. Aks holda, elda boshboshdoqlik, o‘zibo‘larchilik va o‘zboshimchalik avj oladi. Zulmkor ustun, mazlum past bo‘ladi. Shu sababdan ham kishilik munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalarga doim ehtiyoj bo‘lib kelgan.

Dastlab bu og‘zaki shaklda urf-odatlar shakkida namoyon bo‘ldi. Avloddan avlodga o‘tgan sayin turli o‘zgarishlar sodir bo‘lgani sayin yozma qonunlarning o‘rni kuchaya boshladi. Alaloqibat, bugungi zamonaviy ko‘rinishga keldi.

Qonunlar ham ko‘paygani sayin ularning shajarasи paydo bo‘ldi. O‘z kuchiga qarab ular bir-biridan farq qilishni boshladi. Bunda markaziy o‘rinni Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar egalladi.

O‘zbekiston ham mustaqillikka erishgach, o‘z milliy qonunchiligini yaratishni boshladi. Bunda 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bosh mezon bo‘lib xizmat qildi. O‘ttiz yildan ortiq vaqt davomida mazkur hujjat ayrim o‘zgartirishlar bilan mazkur vazifani bajarib berdi.

Biroq hech narsa abadiy emas. Hamma narsa ham yillar o‘tgani sayin eskiradi. Kishilar o‘rtasidagi munosabatlar ham rivojlanib, yangi ko‘rinish ola boshlaydi. Shu sababdan Konstitutsiyani yangilash zarurati vujudga keldi va mazkur yangilanishlarga xalqimiz 2023-yil 30-aprel kuni “ha” deya javob berdi.

65 foizga o‘zgargan Konstitutsiyamiz mutlaqo yangicha ko‘rinish oldi. Unda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan bir qancha o‘zgartirish va qo‘srimchalar o‘z aksini topib,

“inson qadri” uchun g‘oyasining bevosita ifodasi bo‘ldi, desak aslo yanglishmaymiz. Yana bir jihat – Konstitutsiyada uning qoidalari to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi belgilandi. Bu mazkur hujjatning ahamiyatini yanada oshirdi. Bu barchani, shu jumladan, bizni ham Konstitutsiya qoidalariiga so‘zsiz amal qilishga undaydi. Zero, yurist-shoirlarimizdan Xolmuhammad Hasan yozgani-dek:

Kimki qonunning quli,
Turmushi tinch, ko‘ngli to‘q.
Kimning g‘ayirdir dili,
Qonun – qilich, qonun – o‘q.

Uadolat, adl yo‘li,
Achchiqdan achchiq tili.
Nohaq tuhmat-tazyiqqa,
Undan qalin qalqon yo‘q.



**Zilolaxon
Yoqubbekova
7-sinf o‘quvchisi**

BU BAYRAM – BAYRAMLARNING BAYRAMI!

“Taq-taq-taq...” Ertalab singlim ikkimiz yotadigan xonaning eshigi ohistagina taqilladi. Ha, u oyim bizni har kungiday maktabga, bog‘chaga kech qolmasligimiz uchun uyg‘otyapti. Darrov o‘rnimdan turdim-u, singlimni yelkasidan sekin-gina silab uyg‘otdim.

– Turaqoling, Samiraxon, bog‘chaga kech qolasiz.

Singlim avval bir ko‘zini, keyin ikkinchi ko‘zini ochib, erkalanib kerishdi. So‘ngra sichqon-

chaning boshi shaklidagi shippakchasini kiyib, yuviningani chiqib ketdi.

Biz yuvininib-taranib, nonushta qilish uchun oshxonaga chiqqanimizda, hamma stol atrofiga jam bo‘lgan edi.

Odatdagidek to‘rda bobom va buvim, ikki yonda dadam va oyim, quyi tomonda akam, men va singlim o‘tirdik. Stol ustida akam va oyim tayyorlagan ajoyib nonushta. Saryog‘, asal, pishloq, mayiz, yong‘oq, quymoq, yumshoqqi-na non. Akam non bo‘lagi orasiga saryog‘, asal va pishloq solib, singlimga alohida likopchada uzatdi. Samiraxon mammun jilmayib, nonush-taga kirishdi. Kakao qo‘shilgan sutdan ho‘plar ekan:

— Bugun bog‘chamizda bayram – Konstitu-tsiya kunini nishonlaymiz. Men she’r o‘qiyan, raqsga tushman, – dedi maqtanib.

Buvim:

— Qanday she’r ekan? Bizga ham o‘qib be-ring, – dedi jilmayib.

Samiraxon hozirjavoblik bilan yod olgan to‘rtlikni o‘qib berdi:

O‘qi, mehnat qil, deydi,
Yurtni obod qil, deydi.
Huquqingni bil, deydi
Bizning Konstitutsiya!

Hammamiz uni olqishladik.

– Ha, bu kunni har qancha bayram qilsak arziydi, – dedi bobom. Konstitutsiyamiz – mustaqilligimizning, baxtli hayotimizning qomusi.

Bobomning bu gaplari barchamizning xush kayfiyatimizni yana ham yuqori ko‘tardi. Bayram shukuhini yanada kuchliroq his qildik.

Nonushtadan so‘ng o‘zim ta’lim oladigan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod mакtabiga yo‘l olar ekanman, kayfiyatim a’lo edi.

Ko‘rkam shahrimming obod, pokiza va fayzli ko‘chalaridan erkin nafas olib, kelajakka ishonch bilan ketayotganimning o‘zi mamlakatimning Konstitutsiyasi hayotimizni boshqarib, yo‘llarimizni yoritib turganidan dalolat berishini angladim va xayolan: “Sevimli singlim Samira! Bu bayramni har qancha o‘ynab-kulib nishonlasak arziydi!” – deya xitob qildim.



**Mahmud
Mahmudov**
7-sinf o‘quvchisi

FALSEYA MAMLAKATIDA

Dunyoning bir burchagida Falseya nomli bir mitti davlat bor edi. O‘sha Falseya mamlakatiga bahor kirib keldi. Hamma yoqni ko‘kalamzorlashtirish haqidagi shiorlar, har xil afishalar bosib ketdi. Hatto qator-qator seminar-treninglar ham o‘tkazildi. Seminarlarda qanday qilib mamlakat ekologiyasini yaxshilash va ko‘kalamzorlashtirish muhokama qilinardi.

Bir qo‘lida kurak, bir qo‘lida ko‘chatlar ko‘targan baxtiyor insonlar juda ko‘paygandan ko‘paydi. Ular ko‘chatlarni o‘tqazishar ekan, o‘z

ishiga sodiq muxbir esa har birini erinmay tas-virga olardi. Uzundan uzoq suhbatlar uyushtirib, maqola, intervyu va videolavhalar tayyorlardi. Bu mavzuda jurnallar, gazetalar shiddat bilan chop etildi, ko'rsatuвлar efirga uzatildi. Jurnal va gazetalar muqovalari, bosh sahifalari ko'chat ekayotgan yoki kurak va ko'chatni tabassum bilan ushlab turgan odamlarga liq to'ldi. Xullas, Falseya mamlakatidagi har bir ko'cha, har bir mahallaga nihol-u daraxtchalar ekib tashlandi.

Qattiq mehnat va shijoatdan keyin barcha ko'chatlar ekib tugatildi. Muxbirlarning xabariga ko'ra, mamlakat aholisi o'z ishlarini 151 foizga bajarib yuborishibdi. Muxbir maqolalarini gazeta va jurnallarga chop etishga topshirib, telestudiyada ishini bitirib, o'zicha qoyilmaqom repor-taj-u maqolalar tayyorlagan kishi bo'lib, katta qoniqish bilan uyiga jo'nadi. Uyi hovlisiga yetib kelgach, mashinasini shaxsan o'zi uchun betonlangan qismiga qo'ydi. Piyoda ketarkan yo'lida katta-katta harflar bilan "Baxtli xonadonlar" deb yozilgan to'siqqa duch keldi. Tepaga qaradi, baland binoning tom qismiga ulkan kran juda katta

beton parchasini qo‘ymoqda. Buni ko‘rgan muxbir biror-bir g‘isht yoki beton parchasi boshimga tushib ketmasin degan xayolda yelkasini qisibgina tezda o‘tib ketdi.

* * *

U divanga yonboshlab olib, endi reportajimni miriqib tomosha qilaman deb televizor pultiga qo‘l cho‘zgandi hamki, tashqarida birdan quyuq chang-to‘zon ko‘tarildi. To‘zon derazalarni sharaqlatib bir-biriga ura boshladi, uy ichkarisiga to‘zon bilan birga chang yopirilib kirdi. Shunda muxbir sapchib o‘rnidan turib, derazalarni yaxshilab tambalab yopdi. Televizor oldiga qaytib o‘tirganida esa to‘zon uyning tomidan antennasini uchirib, o‘zi bilan allaqayoqlarga olib ketdi. Muxbir deraza ortidan mushtini do‘laytirdi. Go‘-yoki uni va uning davlatini bir noma’lum yovuz kuch ko‘rolmayotgandek chang-to‘zonga uzoq vaqt nafrat bilan tikildi. U bir nimalarni pichirlab, so‘kindi. Ammo u kimni yo nimani so‘kdi, bu yog‘i bizga qorong‘i...

* * *

Bu vaqtda esa ko‘chatlar hammaning yodidan butkul chiqib ketgan edi. Ko‘chatlarga suv quyish, ularni parvarishlash insonlarning xayoliga ham kelmasdi. Nihollar o‘tgan-ketganga suv-suv deyishar, mo‘ltirab-mo‘ltirab boqishardi. Ammo so‘nggi lahzalarga qadar suvdan darak bo‘lmadi. Yo‘q, hech kim obi hayot bermadi, ularga! Shu alpozda ko‘chatlar qiytnala-qiytnala birin-ketin qurib bitishdi va xas-xashakka aylanib, chang-u to‘zonlar ichra qorishib ketdi.





Aziza
To'raboyeva
8-sinf o'quvchisi

PINHONA GO'ZALLIK

Shaharning chekkasida bir katta tog‘ bor va uning chiroyliligidan hamma xabardor edi. Tog‘da bir gul bo‘lib, u faqatgina bir yilda bir marta gullar edi. Bu esa har doim to‘rtinchi oyga to‘g‘ri kelar edi. Bahor kelganda tog‘ni turfa xil lolalar qoplab oldi. Bu yerning go‘zalligini barcha eshitib, har kuni shu yerga dam olish uchun kelar edi. Bir kuni insonlar ketganidan so‘ng lolalar gulga gapiribdi:

– Sen o‘zi bu yerda nima qilyapsan? Shuncha chiroyli lolalar orasida sendek o‘simplikka joy yo‘q.

– Men ham sizlarga o‘xshagan gulman-ku, axir.

– Bu so‘zni boshqa takrorlay ko‘rma, sen bizning oldimizda bir maysa kabisan. Na guling bor, na chiroying. Nima, haqiqat emasmi? Shuncha inson sening oldinga kelyaptimi, yo‘q! Shuning uchun o‘zingni bizga tenglashtirma, agar imkonim bo‘lganida edi, shunday go‘zal joyni buzib turganliging uchun seni uzib tashlardim.

Bu gaplardan gul juda xafa bo‘ldi, ammo keyinchalik unutib yubordi. Aprel oyi boshlanganda esa gul shunaqa chiroyli bo‘lib ochildiki, barchaning havasi kelar edi. Hatto odamlar lolalarni bosib uning oldiga borar edi. Endi bo‘lsa, barcha uni ko‘rgani va rasmga tushgani kelar, bu gulni ko‘rmagan inson deyarli qolmagan edi. Hatto hech kim bu gulni uzmay, uni so‘lib qolmasligi uchun asrar va qo‘riqlar edi. Tezroq kelasi yil kelsa-yu, yana bu gul ochilishini ko‘rish barchaning orzusi edi.

Bu gulning oldida qadrini va chiroyini yo‘-qotgan lolalar esa barcha o‘simgliklardan avval qurib, qovjirab qolishdi...



**Hanifaxon
Sultonamirova
8-sinf o‘quvchisi**

BINAFSHA

*Oyning o‘n beshi qorong‘i,
O‘n beshi yorug‘*

Xalq maqoli

Kichkinagina qiz, nozik, lekin matonatli, oq yuzida qizil yonoqlari husniga husn qo‘shib turadi. Qizning ismi Binafsha, o‘n ikki yoshda bo‘lishiga qaramay, hayotdan umidlari katta. Oldiga ulkan maqsadlar qo‘ygan. Yagona quvonchi maroq bilan mutolaa qiladigan kitoblari. Ilmga shu qadar chanqoqliki, darslaridan, uyida onasining tikish ishlariga qarashishdan bo‘shashi bilanoq,

qo'shnisi Nazira xoladan iltimos qilib, kitoblarni olib turadi. Nazira xola – shoira, uyida shaxsiy kutubxonasi ham bor. Binafshaning oilasi unga kitob olib bera olmasligini bilgani uchun o'z kitoblaridan foydalanishiga ruxsat beradi. Yaqinda Binafsha adabiy yo'nalishda iqtidorli o'quvchilar uchun ijod maktablari tashkil etilganini, bu maktablarda ijodga qiziqqan o'quvchilarning iqtidorini sayqallab, yanada kengroq imkoniyatlar yaratib berilishidan xabar topdi. Ammo Binafshaning ota-onasi bunday maktablarga ularning oilaviy sharoiti to'g'ri kelmasligi va u yerda o'qiy olmasligini aytishdi.

Binafsha qayg'uga botdi. Ko'ngliga bamisolli kuz bostirib kirdi. Chorasizlik bo'ronida qaddi bukildi, o'ksinish hissi qalbini sovitdi va umidini yo'qtdi. Harakatsiz qoldi, kunlar o'tgan sayin ruhi yanada cho'kib bordi. Umidsizlik to'la ayoz kunlarni boshdan kechirdi. Qish... Istaklarga to'-la, ilmga chanqoq qaynoq qalbiga qor yog'di. Bir muddat chorasizlikdan oyoq qo'li bog'landi, ammo yuragidagi ilmga bo'lgan muhabbati muzlagan vujudini isitib, jon bag'ishlab turardi. Ishtiyoqi, irodasi umidining muzlab qolishiga yo'l

qo‘ymadi va u bor imkonini ishga solib, orzusini ro‘yobga chiqarish maqsadida tirishdi, ijod maktabiga kirish imtihonlarini topshirdi.

* * *

Kunlar o‘tdi...

Imtihon javoblari e’lon qilindi. Hayajondan, balki, qo‘rquvdan qaltiragan Binafsha uzoq kutilgan mujdani oldi. Iliq bahorli kunlar kelayotgandek edi. Umidsizlik qori ostida qolgan Binafshaning orzusi asta-sekin ushala boshladi. Bahor keldi. Qorlar eridi. Binafsha o‘qishga qabul qilindi!

Bu xushxabardan Binafsha ham, uning oilasi ham hayratga tushdi. Ular o‘zlarining noto‘g‘ri fikrda bo‘lishganini tushunib yetishdi. Binafsha maktabga bordi. Uni ilk kundanoq yaxshi kutib olishdi. Endi Binafsha o‘z yo‘lini topgan, kutilgan bahoriga yetgan edi.

Qissadan hissa shuki, inson hayotida turli xil vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Lekin og‘ir, qiyin kunlarda ham go‘zal sabr qilib, maqsadimizga yetishish uchun harakat qilishimiz kerak. Axir, yilning to‘rt fasli ham bahor bo‘lavermaydi!



**Samariddin
Qodiriy
9-sinf o‘quvchisi**

ESARXON

(Voqeiy hikoya)

Mana Husanjon endi tushlikni qilib, o‘z “Matiz” avtomobilida rizqini terish uchun yo‘lga chiqdi. U “Yandex taxi”da kira qiladi. U bugun ancha qiynalib yig‘gan puliga kir yuvish mashinasini olgandi. Kir mashinani orqa o‘rindiqqa yotqizib qo‘ygandi. Chunki yukxonani gaz baloni to‘ldirib turardi. Husan bugun yoz jaziramasida qanday mijoz chiqishini o‘ylab, xayol surayotgandi. Telefon jiringlab buyurtma tushdi. Husanjon:

“Ana buyurtma ham olindi, mijozni ikki chorraha naridagi muyulishdan olib, beshinchi bolalar shifoxonasiga eltid qo‘yamiz”, dedi o‘ziga o‘zi.

So‘ngra buyurtmachining oldiga besh daqiqada yetib bordi. Ayol avtomobilga o‘tirmasidan:

– Haydang, – deb buyruq berdi. Husan ichida:

“Na salom bor, na alik bor”, deya avtomobilni yurg‘azdi. Kelin yo‘l bo‘yi telefonda:

– Hm, hm, hm, hmlab, – ketdi.

Bu Husanjonga yoqmadi. U ichida:

“Bu ayol “hm”dan boshqa so‘zni bilmaydim? Telefon olib berganniyam...” dedi ichida.

Husanjon arang chidab mijozni manzilga yetkazib bordi. Chunki uning juda jahli chiqqandi. Ayol:

– Mana, – deb pulni oldi o‘rindiqqa tashlab, tushib ketdi.

Husan Chorsu bozoridagi ustaxonaga haydadi. Chunki avtomobilini ta’mirlatishi kerak edi. Yo‘lda orqa o‘rindiqdan:

– Oyi, – degan tovush eshitildi.

Husanjon cho‘chib tushdi va tormoz tepkisi ni qattiq bosdi. Avtohalokatga uchrashiga ozgina qoldi. Husan ortiga qaradi va bolachani ko‘rib:

- Iya bolakay, isming nima? – dedi. Bola:
- Ismim Umarjon, amaki, – dedi. Orqadan signal chalib:
- Ey, yurmaysanmi? – deb haydovchilar qichqirishdi.

Husanjon tezlik bilan avtomobilni yo‘l chetiga oldi va suhbatni davom ettirdi:

- Boyagi “hm, hm, hm”lab kelgan sening oyingmi? – dedi. Bolakay:
- Ha, mening oyim bo‘ladilar, – dedi. Husan:
- Yoshing nechada? – dedi. Bola qo‘li bilan ko‘rsatib:
- Besh yoshman, – dedi. Husanjon:
- Bunaqa voqealar ko‘p bo‘lib turadimi? – dedi. Bolakay:
- Ha, birinchisi emas. Yaqinda ham yashil katta mashinada qolib ketgandim, – dedi. Husan ichida:
“Menimcha, avtobusni nazarda tutyapti shekilli?” – deb o‘yladi. Bola:
- Amaki, meni oyimga olib borasizmi? – dedi. Husanjon:
- Ha, olib boraman, – dedi.

Shu bilan Husanjon avtomobilni ortga bursdi... Husan yetib borgach ichida:

“Onasidan pul undirsammikan? E, mayli pul olmasdan berib yuboraman. Onam doim: “Odamlardan duo ol! Ularga yaxshilik qil!” derdilar. Keyin menga ortiqcha bosh og‘rig‘ining nima keragi bor”, deya o‘yladi, qat’iy qarorga keldi. So‘ngra ayolga qo‘ng‘iroq qildi va telefonning tovushini ko‘tarib:

– Men boyagi haydovchiman, mashinada hech nimangizni unutmadingizmi? – dedi. Ayol:

– Yo‘q, yo‘q hamyonim, sumkam yonimda, – dedi. Bolakay:

– Oyi, men-chi? – dedi. Ayol:

– Voy bolam, bolam, qayerdasizlar? – dedi. Husanjon:

– Tashqariga chiqing, kutib turibmiz, – dedi. Ayol zing‘illab yugurib chiqdi.

Ayol bolasini quchoqlab:

– Aka, rahmat suyunchisiga, – deb pul chiqardi. Husan pulni olmasdan:

– Biz pulni emas, duoning gadosimiz. E’tiborni faqat telefonga bermay, bolalarga ham qa-

ratib turish kerak, singlim. Axir bular bizning mevalarimiz-ku!.. Husanjon ayolning yuziga ham qaramay jahl bilan o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Aziz o‘quvchilar! Bu voqeaga sizlar qanday fikr bildirasizlar?..





**Mohichehra
Abdulazizova**
10-sinf o‘quvchisi

O‘LMAS MEHR

Nihoyat uzoq kutilgan qishning birinchi kuni ham kirib keldi. Denmark shahrining chekkasida joylashgan Roksayld shaharchasida hali-hanuz yomg‘ir yog‘ganicha yo‘q. Shunga qaramay daxrtlarda bironta ham barg qolmagan, faqatgina ikki qavatli ko‘rimsizgina uyning davomidagi quyuq o‘rmon bundan mustasno edi. Uyning yillar davomida tozalanmaganligi ko‘rinib turibdi, ko‘pchilik bu uyni sirlarga to‘la ekanini ta’kidlaydi, lekin hammaga bir narsa ma’lum: uyda Emiliya ismli bir g‘ayritabiiy qiz yashardi.

Emiliya bugun ertalabgacha uxlay olmadi. Qizcha ota-onasi bilan birga nonushta qilishni istar, lekin ular har doim quyosh chiqmasdan uyni tark etishar va qorong‘i tushmaguncha, ba’zan esa kunlab qaytishmas edi...

Nonushta tayyorlar ekan, dasturxonni kechagina o‘qishdan qaytayotganda terib kelgan o‘rmon mevalari bilan bezadi... Barchasi tayyor bo‘lgach ota-onasini chaqirdi, ularni issiq choy va o‘zi pishirgan shirinliklar bilan mehmon qildi. Qizcha ota-onasining quvonchini ko‘rdi va o‘zi ham sevinib ketdi. U onasidan ertalabdan kechgacha qayerda bo‘lishlari haqida so‘ragan edi, mehribon ona bugun ishdan kelgach ko‘rsatishlarini aytdi. Ular juda baxtiyor edilar, ammo quyosh chiqqa boshladi: ota-onha shu zahotiyoy shoshib chiqib ketishdi. Emiliya bo‘lsa nonushta va uy ishlari bilan chalg‘ib maktabga kech bordi, vaholanki, uning ustoz qattiqqo‘l va darg‘azab bo‘lib, kech qolganlarni yoqtirmas edi.

– Xo‘sh, nega sen har doim kechikaverasan,
– o‘qituvchi qizga baqirdi.

– Uzr, ming bor uzr Klara Vatson... men ota-onam bilan choy ichib qolib ketibman, – dedi qiz qizarib.

Butun sinfni kulgi bosdi.

– Hih, choy icharmish.

– Ota-onang bormi o‘zi?

Sinfdoshlar uni masxara qilishdi, o‘qituvchi bo‘lsa:

– Hali shunaqami, – dedi g‘azabi qaynab, – mana daftar darslarga qatnashging kelsa, uni qu-yidagi so‘zlar bilan to‘ldir: “Endi darslarga hech qachon kech qolmayman”. Dars tugagungacha muhlat, bu sen uchun oliy jazodir.

Emiliya uyga og‘riqdan azoblanayotgan qo‘lini boshqasi bilan uqalagancha kirib keldi. Kechasi uxlamaganidan, shekilli, uyga kirib o‘zining boloxonadagi qadrdon to‘shagiga yetib bordi-yu, qotib uxbab qoldi.

Qorong‘i tushib oy to‘lganda jala quya bosh-ladi. Birdan chaqmoq chaqib, boloxonada miriqib uxlayotgan qizni uyg‘otib yubordi. Oynadan tushayotgan ko‘k shu’la uning e’tiborini tortdi: o‘rmon ichida porlayotgan nurning uy tomon

kelishi va zinalar bo‘ylab ko‘tarilishi qizaloqni qo‘rqtib yubordi.

Shu’la to‘g‘ri ota-onasining xonasi tomon kelayotgan edi.

Darhol es-hushini yig‘ishtirib oldi-da, ko‘k shu’la kirib ketgan xona tomon yugurdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, xonada hech kim yo‘q edi. Nur ota-onasini ham o‘zi bilan ergashtirib o‘rmon tomon ketgan edi. Oynadan qaraganida ota-onasi uni imlab chaqirayotganini sezdi. Faqat bir narsa g‘alati edi: ota-onasi sharpadek ko‘rinayotgandi.

O‘rmon bo‘ylab yugurib borar ekan oyoqlarni shilayotgan cho‘p-xaslar, o‘simliklarga e’tibor ham bermas, og‘riqni bo‘lsa umuman his qilmasdi.

Nihoyat yetib bordi. Quyuq o‘rmon shu yerda daraxtlardan xoli bo‘lib, boyagi shu’la, ota-onasi va yana bitta ruh shu yerda uni kutib turishgan edi.

Bu notanish sharpa Emiliyaning o‘ziga o‘xshar, faqat uning kichkinaligi edi.

Emiliya avvaliga hech narsani tushunmadi. Keyin angladiki, o‘zining qiyofasidagi sharpa kuchli shamol ta’sirida soyabonini qo‘lidan chi-

qarib yuborib, ota-onasiga xarxasha qilayotgan edi. Ota-onal bo‘lsa qalin kiyinmaganligiga qaramay soyabonni tutishga urinishardi. Ustigauustak, yomg‘ir kuchayib borar, olislarda momaqaldiroq gumburlashi eshitilib turardi. Soyabonni tutishga ota-onasi baravar harakat qilishayotgan edi, biroq birdan kuchli chaqmoq chaqdi: yashin soyabonning metall dastagiga urildi va ota-onal sharpani ikki tomonga uchirib yubordi...

Emiliya cho‘chib uyg‘ondi. O‘zining issiq to‘sagida ekanligini anglab shukur qila ketdi. To‘satdan tushidagi shu’laning qarshisida turganligini payqab qoldi. Nur uni o‘ziga ergash-tirib yana o‘sha tushidagi kenglikka olib bordi. Maydon o‘sha-o‘sha, faqat ikki eski qabrtosh bor edi...





**Saodat
Shoabdiyeva
10-sinf o‘quvchisi**

GO‘ZAL TARBIYA

Direktorimiz hikoya qilib bergandi:

“Ertalab maktabga keldim. Ne ko‘z bilan ko‘-rayki, maktabning tashqi devoriga sepiladigan bo‘yoq bilan xunuk bir gap yozilgan edi. Uzoq tekshiruvdan so‘ng buni kim qilganini aniqladik. Darrov uning otasini maktabga chaqirdik. Otasi keldi. Devordagi yozuvni ko‘rgach, xotirjamlik bilan o‘g‘lini chaqirib berishimizni so‘radi. O‘g‘lini chaqirdik. U o‘g‘lidan, haqiqatan ham, bu ishni qilganmi yoki qilmaganini so‘radi. O‘g‘li qilganini tan oldi. So‘ngra ota cho‘ntagidan

telefonini chiqarib, bo‘yoqchiga telefon qildi. U kelgach, u bilan devorni oldingidan ham chiroyli qilib berishini aytib kelishdi. Keyin o‘g‘liga qarab sokinlik bilan dedi:

– O‘g‘lim! Agar boshimni ko‘tarib yurishimga sabab bo‘la olmasang, hech bo‘lma ganda uni tushirib yurishimga sabab bo‘lma!

So‘ngra u bizdan ruxsat olib qaytib ketdi. Men o‘quvchiga qaradim. U qo‘llari bilan yuzini ushlab yig‘lardi. Men otaning uslubidan va uning bolasiga ta’siridan hayratda edim. So‘ngra u o‘quvchi bizdan kechirim so‘radi, pushaymonligini qayta-qayta aytdi. Keyinchalik maktabning eng a’lochi o‘quvchilaridan biriga aylandi”.





**Mehribon
Abdullayeva
10-sinf o‘quvchisi**

KUNLARNING BIRI

Qish kunlarining biri... Erta tong... Bekatda avtobus kutayotgan odamlar sanoqli. Ular orasi-da 4 yoshlar atrofidagi bir qiz va onasi ham bor. Va nihoyat, avtobus bekatga yetib keldi. Ular o‘z avtobuslariga chiqib olishdi. Avtobus ichi issiqligi shundoq ichidagi havodan ma’lum edi. Undagi odamlarning barchasi o‘ychan, xayol og‘ushida, bir-biriga beparvo holda yo‘lni davom ettirishardi. Ammo qizaloq kuyib-pishib o‘z dardlarini bee’tibor yo‘ldoshiga so‘zlayotgan odamni diqqat bilan eshitishda davom etardi. Nima qilsin, ayolning ovozi sal balandroq edi-da.

Yo‘lni shu yo‘sinda davom etishdi. Lekin bir-dan qiz o‘zini noqulay tuta boshladi. Ammo buni bildirmaslikka harakat qilardi. Salgina vaqt o‘t-gach, onasiga yuzlandi va dedi:

– Oyi, men ham katta bo‘lsam shunday ko‘p gapiramanmi?

Onasi o‘ylanib qoldi. Qizining dabdurustdan bergen bunday savolini eshitganidan emas, balki qizining bir og‘iz so‘z aytganidan. Shundan ke-yin oraga jimlik tushdi. Onaning karaxt ahvolda-ligi sabab nima qilishiga hayron edi, javob beray desa tayinli gap topmagan, javob bermay desa uyalib qolishdan xijolat. Shunday holatda u qi-ziga qaradi:

– Qizim, multfilm qo‘yib beraymi?

Qizi onasiga mungli boqib qo‘ydi...





**Rayhana
Rajabova**
10-sinf o‘quvchisi

DO‘STLIK

Kichkintoy Dilnoza tug‘ilgan kuniga otanidan nima sovg‘a so‘rashini o‘ylab yarim tungacha uxlamadi, ammo charchaganligi sababli dars stolining ustida uxbab qoldi. Erta tongda uyqusirab non olish uchun qo‘shni mahallaga yo‘l oldi. Eshikdan chiqqan ham ediki, yon qo‘shnisi, tengdosh o‘rtog‘i – Karimni ko‘rib qoldi. Ular qayergadir ketayotgan edi. Karimning ko‘zлari chaqnab turar, sakrab-sakrab qadam tashlar edi. U Dilnozani ko‘rdi-yu, shu zahoti yonida paydo bo‘ldi va suhbat orasida otasini quyoncha olish

uchun ko‘ndirganini, ertaga unga uycha yasa-moqchiligin aytdi va bunga uni ham taklif qildi.

Buni eshitgan qizaloq ular bilan xayrлаsh-gach yugurib uyiga kirib ketdi. Endi yuzini yuvayotgan otasining yonida tilla topgan odamdek hayajon bilan turardi va shoshib:

– Kuchukcha xohlayman, – dedi. Ota qizi-ning ahvolini ko‘rib kulib yubordi va dedi:

– Yaxshi, yaxshi, oppog‘im. Nonushta qilib olaylik.

Onasi nonushtaga quymoq tayyorlagan ekan, non olib kelishga hojat qolmadi. Dilnoza choy-ni ham apil-tapil ichib, mashinaga chiqib oldi. Uning muddaosini bilgan otasi ham tezda ortidan chiqdi. Uy hayvonlari do‘koniga borgach, otasi mushuk yoki quyon olish haqida so‘ragan edi hamki, rad javobini oldi. Shunday bo‘lsa-da, tan-lash ancha vaqt oldi.

Uyga qaytgach, ular uycha yasayotgan Karim va otasiga duch keldi. Karim: – Nari tur, iting qu-yonimni yeb qo‘yadi, – dedi.

Mashinadan tushgan Dilnozaning otasi ular-ga yaqinlashib:

– Xavotir olma, ular hali kichkina. Birga katta bo‘lishadi, do‘stlashib olishadi, – dedi.

Shu zaylda oylar o‘tar, bolalar va ularning do‘stlari birga katta bo‘lishar edi. Bahor kunlarning birida Karimlar tog‘ga ketayotib uyining kanlitini ularga tashlab ketdi. Yakshanba kuni kechki payt kuchukning egalari ayvonda choy ichib o‘tirgandi. Katta itga aylangan kuchuk og‘zida qon va tuproq aralashmasidan qorayib ketgan quyonni tishlab turardi.

– Qo‘shnim to‘g‘ri aytgan ekan. It itligini qilibdi. Endi nima qilamiz? Birozdan so‘ng ular qaytishadi.

Hamma bir-biriga qarardi. Bechora itning esa g‘ingshiganicha ko‘zidan yosh oqardi. Shunda ayoli:

– Quyonni yaxshilab yuvib, quritib hovlisiga qo‘yib qo‘yamiz.

Birpasdan keyin qo‘shnilarning ovozi eshitildi. Keyin esa bolalarning chinqirig‘i. Ikki daqiqa o‘tar-o‘tmas eshik taqilladi. Ostonada arvoh ko‘rgan odamdek oqarib ketgan qo‘shni turardi.

– Nima bo‘ldi? Tinchlikmi? – so‘radi itning egasi.

– Quyon ... quyon...

– O‘lib qolibdimi? Boya kunduzi chopqillab yurgandi-ku!

– U biz ketishimizdan oldin o‘lgandi...

– Nima?

– Dam olishga ketishimizdan oldin bolalar uni bog‘ orqasiga ko‘mib kelishgandi. Hozir esa u yana o‘z uyida yotibdi.

Qadrdon do‘smini qidirgan it uni topgan va yer bag‘ridan chiqarib olgan edi.





Ozodbek
Azimjonov
10-sinf o‘quvchisi

DARDGA MALHAM “TABIB”

Uni ko‘rgan odamlar jinni deb o‘ylardi, chun-ki u hammadan ham boshqacha fikrlar edi.

Salmon mashinaga o‘tirdi, u bilan qo‘shilib yana uch kishi chiqdi.

Biri sal cho‘loqroq ekan. Birining oyog‘i og‘rir, uchinchisining esa belida muammosi bormish.

Gap aylanib keldi-da, cho‘loq xola: “Bir tabib bor, rosa yaxshi davoleydi, bitta oyog‘im kalta edi, o‘sha tabib oyog‘imni uzaytirib qo‘ydi”, deb aytib qoldi.

Yolg‘on-yashiq qo‘shib, rosa bir nimalar aytgan edi – yonidagi odamlarga bu gaplar najot farishtasi bo‘lib ko‘rinib ketdi.

“O‘sha tabibning uyiga uchalamizni ham oborib qo‘ying, taksi ukam”, – dedi bel og‘rig‘i qiy Naydigan odam, qolganlar ham bu fikrga qo‘shilishdi.

Salmon turib-turib kulib yubordi:

– Amaki, bu qanaqa jinnilik?! Ollohga iltijo qilib, undan yordam so‘rash o‘rniga qayerdagি bir tabibga ishonishadi. Bu arzimas narsamas, butun boshli bir odamning sog‘ligi-ya! Keyin ertaga yana kasal bo‘lib, davolanish uchun million-lab pul to‘lashadi.

Salmon yana 5-6 daqiqa gapirgan edi, orqadagi “xastalar”ning fig‘oni falakka chiqdi.

– Bilmasangiz gapirmang, uka, u tabib odam, siz ham qarib yoki dardga chalinsangiz, ko‘ramiz ahvolingizni!

– Axir hozir zamon rivojlangan-ku, jarrohlik bilan hammasini hal qilsa bo‘ladi-ku, – dedi kuyinib Salmon.

— Ha, jarrohlik kursisiga chiqib, kim tanasini kestirarkan. Eng to‘g‘risi tabib! Siz bizga aql o‘rgatmang, uka!

Salmon jimgina kulib qo‘ydi, dunyoqarashi ham tanalari kabi xasta insonlar bilan ortiq gap talashib o‘tirmadi. O‘zi uchun xulosa chiqarib oldi, xolos.





Komila
Mahmudova
10-sinf o‘quvchisi

SO‘Z QIYMATI AMAL BILAN

Mana, uch oylik yozgi ta’til tugab, kutilgan sentyabr oyi ham keldi. Go‘yo bugun quyosh o‘zidan boshqacha nur taratardi. Erta tongdan daraxtlar, gullar atrofga go‘zallik va tarovat bag‘ishlardi. Odatdagidekbekatda avtobus keleshini kutib turdim. Avtobus 10 daqiqalardan keyin keldi. Odamlar bilan birga avtobusga chiqdik. To‘satdan ovoz keldi: “To‘xtang, to‘xtang, amaki, men qolib ketmay”. Avtobusga men qatori bo‘lgan, yugurganidan hansirab, kiyimlari tartibsiz bir qiz chiqdi. Boshida bu qiz mening e’tiborimni unchalik tortmagandi. Biroz o‘tib

kimningdir telefoni baland ovozda jiringladi. Kim ekan deb qiziqib qaradim. O'sha men qatori qizning telefoni ekan, javob bera boshladidi: "Ha, oyi buncha telefon qildingiz, hozirgina gaplashdik-ku. Ha, tushundim, yetib borganimda telefon qilaman. Kap-katta qizman-ku, namuncha xavotir olmasangiz. Bo'pti, men avtobusdaman ko'p gaplasholmayman", – dedi-yu, hatto oyisining javobini kutmasdan telefonni o'chirib qo'ydi. Bu voqeа meni ta'sirlantirdi. Ko'z oldimga o'z oyim keldi va ichimda yo'q, onalarning hech biriga bunday muomala qilib bo'lmaydi-ku, deb qo'ydim. Avtobus oynalaridan atrofni tomosha qildim, bo'lgan voqeа esa sal-pal esimdan chiqqandek bo'ldi. Manzilimga yetgach, avtobusdan tushib maktab tomon yura boshladim. Maktabda sinfdoshlarim, ustozlarim bilan salomlashdik. Hamma bir-birini sog'ingan edi. So'ng joylarimizga o'tirib oldik, ustozimiz esa nutq so'zlardi. To'-satdan eshik ochildi-yu, hamma e'tiborini eshik tomonga qaratdi. Ko'zlarimga ishonmayman, nahotki?! O'sha men avtobusda ko'rgan, oyisiiga telefonda baqirgan qiz, uning bu yerda nima

ishi bor?! O‘zimga o‘zim mana shu savollarni berar ekanman ustozning gaplari meni chalg‘itdi. “O‘quvchilar, tanishing, bu yangi sinfdoshingiz. O‘zingni tanishtir, marhamat”, – dedi ustozimiz. “Mening ismim Samira. Bu yerga 34-maktabdan keldim. Sizlar bilan tanishganimdan xursandman. O‘yaymanki, hammangiz bilan yaxshi chiqishib, ahil bo‘lib ketamiz” – dedi. Rosti, bu tanishuvdan boshqa do‘stilarim mamnun bo‘lishgan bo‘lsa-da, men xursand bo‘lmadim. Sababi ertalabki voqeа ko‘z o‘ngimdan hech ketmasdi. Mayli, deb qo‘yishdan boshqa choram ham yo‘q edi. Ustoz esa yangi mavzuni boshladilar. Kitobdagи mavzuda bir savol bor ekan: “Vatan nima sababdan onaga o‘xhatiladi?” O‘qituvchimiz: “Samira, sen yangi qo‘shilding, qani, sendan javobni eshitaylik-chi?” – dedilar. Shu payt go‘yoki Samirani faqat qulqlarim bilan emas, balki butun vujudim bilan tinglagandek bo‘ldim. Mana uning javoblari: “Ustoz, axir, Vatan ham onalarimiz kabi mehribon, jonkuyar va muqaddasdir. Bu dunyoda inson uchun o‘z onasidan-da muqaddas kishi bormi? Shunga o‘xshab Vatan ham yagona va bebah-

dir. O‘zim ham she’r va hikoyalar yozib turaman. Asosiy mavzu ko‘pincha Vatan hamda ona”. Mana shu gaplardan keyin xayollarim yanayam alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketdi. Nimaga unda oyisiga ertalab yomon muomala qildi, nima uchun baqirdi? Axir, bilar ekan-ku hammasini! O‘rnimdan turib shu savollarni o‘ziga bergim keldi, lekin boshqalarning oldida so‘rash bu noto‘g‘ri edi. Shu kuni ba’zi odamlarning qilgan amallari, ularning aytgan so‘zlariga to‘g‘ri kelmasligiga guvoh bo‘ldim. Asosiysi aytgan so‘zlarimiz, aqlii gaplarimiz emas, balki uning isboti, ya’ni amalimizdir. Darhaqiqat, so‘zlash, biror mavzu haqida fikr bildirish hammaning ham qo‘lidan keladi, lekin bu narsalarni amalda ko‘rsatishni hamma ham eplay olmaydi.





**Feruzabonu
Temirbayeva
10-sinf o‘quvchisi**

IKKI MAYIZ SUHBATI

Osh tarqatish vaqtı yaqinlashib qolgan.
O‘quvchilar birin-ketin oshxonaga tushib kelish-moqda. Qozonda ikki mayiz suhbatı:

- Menimcha, meni hamma ajratib tashlaydi.
- Yo‘g-e, unday dema.
- Ba’zilarning fikricha, mayiz – shirinlik (tarkibida glyukoza miqdori ko‘pligi sababli), osh esa ovqat. Unda: tuz, zira va shunga o‘xshagan sho‘r ziravorlar bor emish.
- Qayerdan olding bu gaplarni?
- Ko‘pchilik aytganiga gapirdim-da-a-a.

— Bilmadim, menimcha, bunday emas. Yosh-larga foyda keltirsak, vitaminlarga boy bo‘lsak, bo‘ldi-da. Ortiqcha narsani nima qilasan?

— ...

Shu payt osh suzilishni boshladи. Salbiy fikr-dagi mayiz o‘zi aytganidek uvol bo‘ldi.

Hayotda ham ikki xil fikrlaydigan insonlar bor: biri optimist, biri pessimist. Unutmaslik kerakki, atrofimizda sodir bo‘layotgan barcha voqealar xohlaganimizdek, o‘ylaganimizdek bo‘ladi. Shu sababli har narsadan yaxshilik izlashni o‘rganish, hayotga kulib boqish – zamon talabi desak, adashmagan bo‘lamiz.

QORPARCHALAR BAHSI

Osmondan ikkita qor parchasi yonma-yon tushib kelar edi.

— Uchish qanchalar yaxshi, to‘g‘rimi? – deb so‘radi ulardan biri.

— Yo‘q, – dedi bunga javoban ikkinchisi.

— Uchmayapmiz, axir biz qulayapmiz!

— Lekin yaqinda qo‘namiz va birodarlarimiz bilan bir butun qatlamga aylanamiz...

- Qo‘ysang-chi... Pastda halok bo‘lamiz, bizni oyoqosti qilishadi!
- Oyoqosti bo‘lmaymiz, kunlar iliganda oqar suvgaga aylanishimizni, hatto daryogacha oqib borishimiz mumkinligini o‘ylab ko‘rgin...
- Hecham-da! Suvga aylanarmishmiz!..
Erisak ham loyqa suvgaga aylanamiz, keyin behuda yo‘q bo‘lib ketamiz!..
Ular shunday babs bilan yergacha yetib keliishi. Keyin... keyin esa har ikkisi o‘z tasavvuridagi taqdirni kutib oldilar.





Zilola
Galiakbarova
10-sinf o‘quvchisi

OQ KUNDAN QORA XOTIRA

Soat tonggi 6:00. Telefon qo‘ng‘irog‘i uy-g‘otish uchun jiringladi. Erinibgina ko‘zimni ochdim. Negadir ko‘nglim g‘ash. Amallab o‘rnimdan turdim-da deraza oldiga bordim. Qarasam, hamma joy oppoq qor. G‘alati bo‘lib ketdim. Qishni yomon ko‘raman. U hamma uchun juda chiroyli va yoqimli fasl. Lekin men uchun o‘sha mash’um kunni eslatadi. Ha, beg‘ubor bolalik davrimning eng qora kunini eslatadi u. O‘zi oq bo‘lsa-da, lekin qora xotiralar qoldirgan o‘sha uzoq bolaligimni...

Bu voqea ancha yillar avval bo‘lib o‘tgan edi. Beg‘ubor bolalik davrimda. Hayotimning eng shirin kunlarining achchiq bir xotirasiga aylangan. O‘sha kundan boshlab men qish faslini yomon ko‘raman.

Qish kunlarida maktabga borishni juda yomon ko‘rardim. To‘g‘ri-da, sovuqda ertalabdan turib maktabga borish kimga ham yoqadi deysiz. Ayniqsa, uyim maktabdan ancha uzoqda bo‘lgani uchun juda erta turishimga to‘g‘ri kelardi. O‘sha yili qish har doimgidan ancha sovuq keldi. Xuddi kechagidek yodimda, xuddi bugungidek aynan shu vaqtida soat qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Istaristamas ko‘zimni ochdim va soatga qaradim. Endigina 6:00 bo‘libdi. “Yana ozgina uxlasmam ham bo‘ladi, kech qolmayman”, dedim va ko‘zlarimni yumdim. Bir payt ko‘zlarim shartta ochildi va soat 6:30 bo‘lganini ko‘rdim. Jin ursin, kech qoldim! Nima qilishni bilmay turib qoldim. Maktabga borishga hali kech emas, lekin hech oyog‘im tortmayotgandi. “Nima bo‘lsa bo‘ldi”, – dedim-da, apil-tapil kiyinib tashqariga chiqdim. Juda sovuq va yo‘llar sirpanchiq

edi. Bugun uydan kech chiqqanim uchun har kungi avtobusimga ulgurmagandim. Shu bois keyingisini kutishga majbur bo‘ldim. Men chiqadigan avtobus uchun yo‘lovchilar juda ko‘p to‘planishdi. Ammo avtobusdan darak yo‘q. Shu payt shoshayotgan odamlar taksi to‘xtatishdi. Aslida, o‘tirish niyatim yo‘q edi, ammo maktab tarbiyachisining kech qolganimizda aytadigan achchiq gaplari xayolimga keldi-yu, qanday o‘tirganimni bilmay ham qoldim. “Shoshganda hamma narsa chappasiga ketadi”, deganlari shu bo‘lsa kerak, mashina har safar svetoforning qizil chirog‘iga to‘g‘ri kelardi. Odamlar manzillariga yetib kelishgach, tushib qolishdi, taksida faqat men qoldim. Maktabimga yetishga ozgina qolganda qo‘limni kissamga soldim-u, yuragim “shuv” etib ketdi. Chunki pulim yo‘q edi. Ha shoshilganimdan hamyonimni uyda qoldirgandim. Sumkamni qaraganimda ham chala qolgan vazifalarim yozilgan kitob-daftardan boshqa hech narsa yo‘q edi. Mana maktabga ham yetib keldim. Haydovchi yetib kelganimni aytganda unga: “Hozir ustozlarim yoki sinfdoshlarimdan

pulingizni olib chiqib beraman”, – dedim va mashinadan tushdim. Haydovchi orqamdan nimadir dedi, ammo eshitib ham o’tirmay maktab tomon yugurdim. Yo‘lning narigi betiga o‘tishim kerak edi, ammo, afsuski, yana qizil chiroqqa to‘g‘ri keldim. Har kuni ko‘zimni yumib ochgumannimcha o‘tib ketadigan 30 soniya bugun 30 daqiqadek tuyildi. Shu paytda negadir faqat orqamga o‘girilib: “Hozir chiqaman, amaki, ketib qolmang, hozir pulingizni olib chiqaman”, – deya ovozim boricha baqirardim. Go‘yoki baqirmsasam, taksichi amaki ketib qolib undan butun umr qarzdor bo‘lib qoladigandek. Va nihoyat, piyodalar uchun yashil chiroq yondi va yugurgancha maktab darvozasidan kirdim. Tez yugurganim uchun hansirab qolgandim. Maktabga kirguncha ham eshitilmasligini bilsamda: “Iltimos, ketib qolmang”, – deya baqirardim. Maktabga kirganimda qo‘ng‘iroq allaqachon chalinib, darslar boshlangan edi. Maktab koridorida har doimgidek maktab qorovulini uchratdim. Hansiraganacha salom berishni ham unutib: “Amaki, taksichi amaki kutib turibdi,

iltimos, pulingiz bo'lsa, berib turing. ertaga qaytaraman”, – dedim. Shunda qorovul amaki: “Nima, men sening kafilligingni olibmanmi? O'zi arzimas oylikka ishlayotgan bo'lsam, bor boshimni og'ritma! Puling yo'q bo'lsa, nega taksiga o'tirasan!?” – deya jerkdi. Tilimda faqat: “Iltimos, amaki, ertaga beraman, iltimos hozir ketib qoladi”, der edim-u, xayolim taksichi amakida edi. Shu payt maktab tarbiyachisi kelib qoldi va yana har doimgidek achchiq gaplarni ayta boshladi. Meni eshitishni ham xohlamadi.

Unga ham nima bo'lganini aytib yordam so'ramoqchi edim, ammo menga gap bermay, jerkib-jerkib darsingga kir, deya baqirib orqasiga o'girilgancha shahd bilan yurib ketdi. Orqasidan: “Axir, axir va'da bergandim”, deya o'pkam to'lib-to'lib yig'lardim. Ko'zlarimdan shashqator yoshlar oqardi-yu, ovozim chiqmasdi. O'sha paytda mittigina qalbim nimalarni his qilganini tushunish uchun faqatgina o'rnimda bo'lishingiz kerak. Buni ta'riflash uchun har qancha urin-sam ham baribir ta'riflarim kamdek tuyulaveradi. O'sha kuni bu dunyoda hech qachon hech

kimga ishonib bo‘lmasligini tushunib yetdim. Hali yosh bola bo‘lsam-da, insonlar uchun insoniy tuyg‘ulardan ko‘ra har doim mol-dunyo kabi o‘tkinchi narsalar ustun turishini tushunib yetganim. Bu besh kunlik hayotda hech kimga kuning qolmasin ekan. Chunki hozirgi zamon insonlari yaxshilik qilishdan ko‘ra, faqat birovning dilini og‘ritishni bilishadi, xolos. O‘sha kun men uchun eng beg‘ubor damlarimning eng qora kuni bo‘ldi, desam yanglishmagan bo‘laman. To‘g‘ri, o‘zim uchun juda ko‘p va foydali xulosalar chiqardim, ammo taksichi amakiga yo‘l haqini bera olmaganim, va’damning ustidan chiqa olmaganim uchun mana o‘n besh yildirki, hali ham vijdon azobida qiynalaman. Qiziq, u men haqimda qanday xayolga bordi ekan? Agar rozi bo‘lgan bo‘lsa, bu dunyodan o‘tgandan so‘ng oxiratda Allohga qanday javob berishimni o‘ylasam, yuragim sanchib qoladi. O‘sha kundan boshlab har kuni o‘sha tak-sichi amakini kutdim, ammo u xuddi Xizr kabi bir marta ko‘rindi-yu, boshqa hech qachon hayot yo‘llarimda uchramadi. Qani endi, yana bir marta ko‘rib qolsam-u, o‘sha mudhish kun uchun uzr

so‘rab, nima xohlasa, bajarsam. Bu mening eng katta orzularimdan biri... Shu kundan boshlab mana shu gunohimni yuvish uchun mashinamga kim o‘tirishidan qat’i nazar, hech qachon hech kimdan pul olmaslikka o‘zimga o‘zim so‘z berdim.





**Shabnam
Uralova**

10-sinf o‘quvchisi

ENG SAVOBLI ISH

Har kungidek maktabga otlandim. Ustozim bergen topshiriqlarni takrorlab, o‘sha birinchi raqamli avtobusda metro tomon boryapman. Yerlar muzlagan, kechagina gupullatib qor yog‘gan edi. Havo sovuqligidan burnim muzlab qoldi. Avtobus bekatlarda to‘xtar, har to‘xtaganida unga 4-5 tacha odam chiqar edi. Ichkari tiqilinch. Avtobus yana bir bekatda to‘xtadi. Unga yoshi yetmishlardan oshgan, yuzini sanoqsiz ajinlar bosgan, ko‘rinishidan sodda, xokisor va nurli bir kampir og‘ir yuklari bilan chiqishga harakat qilayotgan

edi. Ancha qarib qolganligi uchun avtobusga chi-qishga qiyndaldi. Tezda yordamlashdim. Ular esa xursand bo‘lib: “Rahmat, bolam, baraka top”, deb aytdi. Ancha vaqt o‘tgach, haydovchining: “Met-roga keldik”, degan so‘zini eshitdim-u, eshik to-mon harakatlandim. Transport kartam bilan yo‘l haqqini to‘lab tushayotgan edim. To‘satdan bir bolaning: “Pulim yo‘qolib qoldi”, degan vahimali ovozini eshitib qoldim. Bola bir ahvolga tushgan, nima qilarini bilmas edi. Birdan cho‘ntagimga qo‘limni soldim. Xayriyat, pul bor ekan. Olib haydovchiga berdim va bolaga: “Ukam, xavotir olma. O‘zim to‘lab yuboraman”, dedim. Bola xursandligidan: “Rahmat, opa”, deya tushib ket-di. Maktab tomon shoshilar ekanman, metroga yugurib tushib ketdim. Poyezd yura boshladidi. Oradan 3-4 daqiqa vaqt o‘tdi. O‘rindiqlarning birida o‘tirgan ayolning bolasi yig‘lay boshladidi. Ayol xijolat tortar, atrofdagilarning ba’zilarga bu ovoz yoqmayotganligi ularning qarashlaridan bilinardan edi. Sumkamni kovlab ko‘rdim. Undan shokolad topdim. Umid bilan shokoladni bolakayga berdim. U birdan tinchlandi. Ayol biroz yengil

tortganday bo‘ldi. Men metrodan chiqib, maktab tomon yurib boryapman. Birdaniga yo‘l bo‘yi qilgan bu ishlarim oddiygina yaxshilik ekanligi haqida o‘ylab qoldim. Inson bu kabi yaxshiliklarni har kuni qilishga qodir. Men bu yaxshi ishlarni qilsam ham, qilmasam ham maktabga yetib kelardim. Biz shu kabi hodisalarga beparvo qaraymiz. Aslida, atrofimizda bo‘layotgan har bir ishdan yaxshilik, foyda qidirsak bo‘ladi. Bir narsani maqsad qilib olishimiz kerakki, kuniga bitta bo‘lsa ham yaxshilik qilaylik. Bu bizning odatimizga aylansin. Bu kunimizning xayrlı o‘tishiga va bir savobga ega bo‘lishimizga yordam beradi.





**Munisa
Rustamova**
10-sinf o‘quvchisi

DO‘STLAR

Dildora 3-sinfda o‘qir edi. Darsdan so‘ng 4 gacha davom etadigan to‘garagi bo‘lgani uchun uyga borib kelishga ulgurmasdi. Onasi qizining ovqatlanib olishi uchun maktab bufetida ishlovchi ayolga: “Qizim nima olib yesa, hisoblab, yozib qo‘ying”, deb pul to‘lab qo‘yardi. Dildora har doim oshxonaga ikki dugonasi: Umida va Husnora bilan tushib, suhbatlashib ovqatlanardi. Oyning yakunida Dildoraning onasi oshpaz ayolning oldiga keldi. Lekin negadir qarz bu oy har galgidan 3 barobar ko‘p edi. Ertasi kuni dars vaq-

tida Dildoraning onasi sinfxonaga kirdi. Dildora-ni oldiga chaqirib:

– Oshxonada har tanaffusda tushib ovqatlan-yapsanmi? – deb so‘radi. Dildora hayrat ko‘zlar bilan onasiga qarab:

– Yo‘q – deb jimb qoldi. Onasi qo‘liga chizg‘ichni oldi va:

– Yolg‘on gapishtirish mening qizimga yarash-maydi. Senga shunday tarbiya bergenmidim? – deya so‘radi.

Dildora “Yolg‘on gapirmayapman” deyishi bilan uning qo‘liga chizg‘ich bilan urdi. Qiz yig‘lab yubordi. Uning qo‘liga yana urganida esa sinfdagi o‘quvchilar o‘rinlaridan turib:

– Dildorani urmang.

– Unda ayb yo‘q.

– Biz bunga ishonamiz, – deb shovqin solishdi. Lekin bu ovozlar ichida Husnora va Umidaning ovozi eshitilmasdi. Dildoraning onasi yana bir bor urganida sinfda o‘rnidan turmagan bola qolmadidi. Husnora va Umidaning yuzlari dokadek oqarib ketgan, yuzlaridan ter oqayot-gan edi. Dildora buni ko‘rib turardi, lekin hech

narsaga tushunmay hiqillab yig‘ladi. Shu vaqtda sinfxonaga oshpaz ayol kirib keldi. Butun sinf jim bo‘lishib, joylariga o‘tirishdi. Oshpaz ayol Umida va Husnoraning “Dildora uchun olyapmiz”, deb yozdirib qo‘yishganini aytdi. Endi butun sinfning e’tibori ularda edi. Dildoradan uzr so‘rashdi. Sinfning qaysidir tomonidan bir bola: “Nega Dildora yig‘layotganida tan olmadinglar?” – deb so‘radi.

Lekin savol javobsiz qoldi...





**Muxsisa
Abduhakimova**
10-sinf o‘quvchisi

VIJDON AZOBI

Bu kun kechagiday yodimda... O‘sha kuni osmonni qora bulut qoplab turardi. Go‘yo barcha narsadan ranjiganday. Xayol surib maktabga borar ekanman, yo‘lda bir hodisaning guvohi bo‘ldim. Yoshlari yetmishga yaqinlashib qolgan, nur yuzli bir onaxon yo‘lda ketayotib sumkasidan bir narsa oldi-yu, hamyonи tushib qolganini bilmay qoldi. Fursatdan foydalaniб bir yosh yigit ham-yonni oldi-yu, hech narsani ko‘rmaganday yo‘lda davom etdi va birpasda g‘oyib bo‘ldi. Yigit shunchalar tez yugurdiki, odamlarning gapini ham eshitmadи. Yigitga bu qilgan ishi xato ekanligi-

ni ayta olmaganimga o‘zimni aybdor his qildim.
Halollik – insonning baxtli yashashi uchun poy-
devor. Hayot poydevori qanchalik mustahkam
qurilsa, unda yashash go‘zallahadi. Nahotki,
hozirgi kunda insonlarda vijdon degan tuyg‘udan
asar ham qolmagan bo‘lsa...





Oisha
Mannopova

10-sinf o‘quvchisi

SHUKRONALIK

Har kungidek maktabdan so‘ng metroga bor-dim. Bu safar maktabdan kech chiqqanim sababli yolg‘iz ketayotgan edim. Metroda odamlar ko‘p. Hamma ishdan yoki o‘qishdan uyiga qaytayot-gandi. Chamasi bir yoshlar atrofidagi bolaning yig‘i aralash yo‘tali hammani behuzur qilayot-gandi. Dadasi qancha urinsa ham bolaning yo‘-tali to‘xtamasdi. Odamlarning yomon qarashidan bolakayning dadasi battarroq uyalardi. Metro po-yezdi 3 bekat yurgunicha bolakayning ovozi tin-madi. Keyin 6-sinf atrofidagi qiz borib bolaning dadasiga suv berdi. Bolakayga ichirishini aytdi.

U qiz ham hamma kabi bolakayni shamollagan deb o‘yladi, albatta. Dadasining aytishicha, bolaning astma kasali bor bo‘lib, yerosti metrosida bolakayga nafas yetmasdan yo‘talar ekan. Ba’zi odamlar buni eshitib bolaga achindi va shunday savol berishdi:

– Nega bolani qiy nab metroda ketyapsiz? Rahmingiz kelmaydimi?

Shundoq ham vijdon azobidan qiy nala yotgani ko‘zlaridan bilinib turgan ota shunday dedi:

– Farzandimning kasaliga davo topish uchun oyligimning hammasini sarflayapman. Taksida ketishga pulim qolmadi. Ilojsizligim tufayli metroda ketishga majbur bo‘ldim, – dedi.

Bo‘lgan bu voqeani har eslaganimda yashayotgan hayotimga, sharoitimga shukrona keltirishim kerakligini his qilaman. Hayotda shunday qiy nalgan ota-onalar, og‘ir kasalga duchor bo‘lgan minglab go‘daklar bor. Bular qatoridan joy olmaganim uchun yaratgandan qancha minnatdor bo‘lsam ham kam. Zero, kasal bolalar va sharoiti og‘ir ota-onalar ham o‘tgan har bir kuni uchun Allohdan minnatdor bo‘lmoqda.



Feruzabonu
Yoqubboyeva
10-sinf o‘quvchisi

QOMUSIM – BAXTIM

Dars yakuniga yetganini ustozimiz uyga vazifa bergenlaridan so‘ng angladim. Ma’naviyat soati darsi. Ustozimiz bizga “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan beshta moddani yod olish” vazifasini berdilar. Bugun quyosh o‘zgacha charaqlab turardi. Uyga har kungidan erta-roq keldim. Oyim taom tayyorlash bilan ovora ekanlar. Kiyimlarimni tezda almashtirib chiqdim-da, oyimning yoniga kelib, “Oyijon, ustozimiz Konstitutsiyamizdan beshta modda yod olib kelishni vazifa qilib berdilar, shuning uchun

menga yordamlashib yuboring”, dedim. Oyim esa sekin menga o‘girildilar-da: “Bor, meni bezovta qilma, vaqtim yo‘q. O‘zi senlarga Konstitutsiya nimaga kerak ekan? Ana dadang kelsa, so‘rarsan”, deb meni o‘z xonamga chiqarib yubordilar. Darslarimni bajarib, kech tushib qolganini ham sezmay qolibman, bir payt narigi xonadan dadamning ovozi eshitildi. Yugurib chiqib, “Assalomu alaykum, dadajon. Dada, vaqtinuz bo‘lsa, menga Konstitutsiyamiz moddalaridan beshtasini yod olishimga yordamlashib yuboring”, dedim. Dadam charchab kelgan ekanlar-mi bilmadim, “O‘g‘lim, shu ham ish bo‘ldi-yu, o‘zing o‘qib, o‘zing yodlayver. O‘zi sening yoshingda bu narsani yod olishni nima keragi bor?” Demak, men hali kichkina ekanman. Konstitutsiyanı yodlashimning keragi yo‘q ekan-da. Shu xayol bilan xonamga ketayotganimda bobom bilan to‘qnashib ketishimga bir baxyal qoldi. Bobom ham ish bilan mahallaga chiqib ketganlari bo‘yi mana endi kirib keldilar. Bobomga ham bo‘lgan voqeani tushuntirdim. Bobom menga “Bolam, Konstitutsiyamizni yod olish uchun yoshning

ahamiyati yo‘q, sen, albatta, qomusimizni yod olishing, o‘qishing zarur”, dedilar. Ammo menga bu gaplar ta’sir qilmadi, shekilli, bobomning bu gaplariga e’tiborsizlik bilan “Xo‘p bo‘ladi”, deb qo‘ydim. Tong ham otdi. Bugun birinchi soatimiz ma’naviyat soati darsi. Darsimiz ham boshlandi. Ustoz birin-ketin barcha o‘quvchilardan topshiriqni so‘radilar, navbat menga yetib keldi. Men esa ustozning biron ta ham savoliga javob bera olmadim. Sinfdoshlarim esa o‘zlariga berilgan savollardan tashqari menga berilgan savollarga ham javob berishdi. Bu holatdan keyin o‘zimni noqulay his qila boshladim. Chunki butun sinf va o‘qituvchimiz oldida uyatga qolgan edim. Shunda o‘zimga o‘zim savol berdim: “Sinfdoshlarim men bilan teng bo‘lishsa-da barchasini bajarishgan, nega men bu ishni bajarishga harakat qilib ko‘rmadim?” Demak, bobom aytganlaridek qomusimizni bilish, yod olish uchun yoshning ahamiyati yo‘q ekan. Agarda qomusimizni bilmasak, muammoga uchraganimizda unga yechim topolmay qolishimiz turgan gap ekan. Shu kuni uyga borishim bilanoq, Konstitutsiyamizdagi juda

ko‘p moddalarni yod oldim. Bu moddalarni o‘qir ekanman ichimdan boshqacha his-tuyg‘u o‘tdi. O‘zbekistondek diyorda tug‘ilib, haligacha o‘z diyorining, o‘zining qomusi hisoblangan Konsitutsiyani nima ekanligini bilmaydigan insonlar borligini o‘ylab, o‘yimga yetolmay qoldim. Keyinchalik yuqoriroq sinflarga o‘tganidan so‘ng ham Konstitutsiya har qanday vaziyatda kerak bo‘lishiga amin bo‘ldim. Qomusimiz – baxtimiz.





Zilola
Anorboyeva

10-sinf o‘quvchisi

STORY

Sevgi was a little girl. She lived in a small village with her two brothers and parents. She was a really characteristic girl, even though her appearance differed from other girls. She has blue eyes, reddish hair, and eyelashes like an arrow. Her name means “love” in English. That is, her parents want to name her a resonant name, and they found it in Turkish. They wanted to see love for nature, family, friends, and life in their daughter. So, they chose this name for their sole girl.

Sevgi grew up hearing little legends, which are popular in their village. By the way, her vil-

lage is really small but full of fairy tales, legends, and stories; that is to say, even writers write stories or books in extensive fields. Also in this village, spring is more lasting than other seasons, and winter is the shortest season in this place. And also, this village has a sea. This village is strange, as are the people who live there.

Now that she is 17 years old, she is more clever and beautiful than her teens. But she has some health problems; however, her family members don't know about them. Since even she can't understand her situation, The problem is that sometimes in some situations, studying, cooking, or writing, even while walking or listening, she can't see; that is to say, it continues during the 1-2 minutes; she can't understand what happened, and she feels nothing at this time. It occurs all at once, usually within 2-3 days.

After 3–4 months, Sevgi also came across this situation, but it was harder and more difficult than before since she was on the beach, so she couldn't see and stay there for 3 hours. She started crying; she couldn't feel her eyes. Her broth-

ers found him, and they were shocked by this situation for their sister. And they came back home, then Sevgi went to the village hospital with her parents. They are depressed because Sevgi is their sole girl, and the village doctors can't find the problem in her eyes. Then parents went to the old woman's home in the village. The old woman is one of the prognosticators in this place, and she said Sevgi should stay in dark rooms because the bright light affects her "blue eyes" badly. It was a really bad and sad decision for this family, but Sevgi had to do it because she wanted to keep her sight. Unfortunately, our favorite girl is Sevgi. She stays in the dark rooms forever, and she wrote a novel about the "uncomplete world" until she was 18 years old.



**Visola
Abduhakimova**
10-sinf o‘quvchisi

YAXSHILIK JAVOBSIZ QOLMAYDI

Men shaharda o‘qirdim. U paytlarda telefon endi chiqayotgan edi. Akam qiynalib ishlab, o‘ziga telefon olibdi. Xayolimda bu telefon menga kerakligini, undan bu telefonni menga berib turishini so‘rashga harchand harakat qilsam-da, negadir gapira olmadim va oxiri jur’at qilib so‘radim. Undan yo‘q javobini kutgandim, ammo u o‘ylab o‘tirmasdan telefonni qo‘limga tutqazdi. Negadir g‘alati bo‘lib ketdim, sababi telefon hali yangi va akam ishlatishga ham ulgurmagandi. Xijolat bo‘la boshladim va nima

deyishni ham bilmay qoldim. Shunda unga mashina olib berishni va'da qildim. Yillar o'tib muvaffaqiyatim kaliti bo'lmish akamga va'da qilganimday mashina olish vaqtি keldi. Akam yaxshi ko'rgan rangda mashinani sotib oldim. Unga surpriz bo'lishi uchun sovg'a olganimni aytmadim. Kechga yaqin mashinani darvoza oldiga qo'ydim-da, akamni chaqirdim. Unga tantanali ravishda mashina kalitini uzatdim. Akam hayratdan lol qolgan edi va men unga bir necha yillar oldingi voqeani eslatib, bu yaxshiligi uchun mening rahmatim ekanligini aytdim. Akam kutmaganligi uchunmi, negadir yig'lay boshladi va meni qattiq quchoqlab oldi.



**Sevara
Normamatova**
11-sinf o‘quvchisi

USHALGAN ORZU

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Yaqin o‘tgan zamonda, shu yaqin o‘lkalarda Nodira ismli bir qiz yashagan ekan. Tong uning sochlarini silash bilan uyg‘otar, erinchoq ko‘zlarini shijoatga to‘ldirar ekan va bir kuni onasi unga xolasinikiga borig kelishni aytibdi. Nodira shosha-pisha yo‘lga otlandi va har doimgi yashil avtobusiga chiqdi, ishonsangiz odam bugun har kungidan-da ko‘proq edi, biroq Nodira bir amallab o‘rindiqqa o‘tirib oldi. Keyin esa bir kampir kirib keldi, joy berishni xohlamagan Nodira esa o‘zini uxlagan-

ga solgancha “Nega men kattalarga joy berishim kerak, eh, qaniydi men ham kampirga aylanib qolsam” degan o‘ylar bilan manziliga ham yetib oldi. Xolasinikiga borib, shoshgancha eshikni taqillatib, xola men keldim deb baqirdi, lekin Nodirani ko‘rgan xolasi uni tanimadi, chunki qarshisida yuzlarini ajin bosgan, yoshi oltmishlarga yaqin bir kampir bukchayib turgan edi. Nodirani tanimagan xolasi uni uyga kirgizmadi. Nodira ana shunda avtobusdagи o‘sha o‘rindiq sehrli ekanini tushunib yetdi va o‘sha avtobusga yana chiqish niyatida bekatga keldi. Avtobus keldi, avtobusga ana endi menga hamma joy beradi, deb xursand bo‘lib chiqqan Nodiraning hafsalasi pir bo‘ldi, chunki avtobusda xuddi o‘zi kabi bir qiz uni ko‘rib tursa ham o‘zini uxlaganga solib, unga joy bermadi, biroq endi tikka turib ketish u uchun unchalik ham oson bo‘lmadi, boisi u anchagina qarib qolgan edi, azobli og‘riq uning belida ham, oyoqlarida ham sezilar edi. Shundan keyin Nodira oylar davomida yana yosh bo‘lib qolishni so‘rash maqsadida o‘sha avtobusni qidiribdi, lekin uni hech topa olmas emish. Shu paytda sochlari

to‘zg‘igan, yuziga qarilik nuqsi urgan, biroz jahldor konduktor opaning “Manzilingizga yetib keldingiz” degan gapi Nodirani qo‘rquinchli tushidan uyg‘otib yubordi. Shundan buyon Nodira doimo avtobus yoki metroda kattalarga joy berar emish.





**Durdona
Baxtiyorova**
11-sinf o‘quvchisi

DO‘STLIK

Jasur tengdoshlari orasida o‘zining bilimligi va og‘ir-bosiqligi bilan ajralib turardi. Yoz oylari uning xotirasidan umrbod joy oldi. Chunki... u otasidan ayrıldı. Otasining vafotidan oldin ular oilasi bilan 3 xonali uyda ijaraga turishardi. Keyinchalik Jasur onasi bilan 1 xonali uyni ijaraga olishdi. Chunki onasining farroshlik qilib topayotgan puli 3 xonali uyning ijarasiga, bundan tashqari soliqlarni to‘lash uchun ham kamlik qilardi. Shunday qilib, ular 1 xonali uyda yashay boshlashdi.

Yangi uy Jasurning maktabidan ancha uzoq-da edi. Shuning uchun onasi unga yangi uyiga yaqinroq maktabda o‘qishini davom ettirishini aytdi. Jasur o‘zining maktabini, sinfdoshlarini, qolaversa, ustozlarini qattiq yaxshi ko‘rardi va ularga o‘rganib qolgandi. Shunday bo‘lsa-da, u yangi maktabda o‘qishga noiloj rozi bo‘ldi.

Va nihoyat kuz keldi. Jasur 6-sinfni yangi maktabda boshladi. U biroz tortinchoq bo‘lgani uchun sinfdoshlari bilan tanisholmadi. Darslar boshlandi. Jasur xursand edi. Chunki bugun u yoqtirgan fanlar bo‘lishi kerak.

Tarix darsi. Odatda bu sinfda hech qaysi o‘quvchi tarix fanini a’lo bahoga bilmasdi. Shuning uchun ham Jasur tarix o‘qituvchisining e’tiborini tortdi. U barcha savollarga javob berar edi. O‘qituvchi Jasurni hadeb maqtashi qolgan o‘quvchilarning jahlini chiqardi. Ular Jasur bilan tanishmay turib, uni yomon ko‘rib qolishga ulgurishdi. Tanaffus payti sinfdagi eng urishqoq bola – Sarvar Jasurning oldiga kelib:

– Hey, aqli. Isming nima? – deb so‘radi do‘q bilan.

– Jasur.

— Menga qara, Jasur, sen o‘zingni aqlli ko‘rsatib, bizni ahmoqqa chiqarmoqchimisan? Ustozlarga bizni yomon ko‘rsatmoqchimisan? Agar yana bir marta o‘zingni aqlli ko‘rsatishga urinsang, otamga aytaman, seni bu maktabdan haydattirib yuboradilar.

Jasur indamadi.

Ertasi kuni u yana kechagiday ustozlarning barcha savollariga javob berib, a’lo baholar oldi. Bundan Sarvarning jahli chiqdi va tanaffus payti Jasurning ustidan bir stakan suvni to‘kib yubordi. Jasur bu safar ham indamadi. Alamini olmadi.

Bu hol haftalab davom etdi. Jasur doimgidek a’lo baholarga o‘qir, Sarvar esa uni yomon ahvolga solishdan, unga do‘q-po‘pisa qilishdan charchamasdi.

Kunlardan bir kuni Sarvar ko‘chada Jasurni ko‘rib qoldi. Jasur odamlarga nam salfetka sotib pul topayotgan edi. Chunki u onasining farroshlik orqali pul ishlayotganini ko‘rib turib, o‘zi uyiда xotirjam o‘tirolmasdi. Otamdan so‘ng uyning erkagi men hisoblanaman. Shuning uchun ishlashtim kerak, deb o‘ylardi u. Ammo bu haqida Sarvar bilmasdi, shuning uchun ham hayron holda

Jasurga tikilib turardi. Birozdan so‘ng Jasur uyiga yo‘l oldi. Negadir Sarvar Jasurning orqasidan borishni xohladi. Jasurning uyini ko‘rib, hayrati yanada oshdi. Chunki u bunday yomon ahvoldagi uyni umri bino bo‘lib ilk marta ko‘rishi edi.

Ertasi kuni u Jasurning oldiga kelib, hol-ahvol ham so‘ramay:

– Sening otang hech qayerda ishlamaydimi? – deb so‘radi.

Jasur yerga qarab:

– Mening otam vafot etgan, – deb javob berdi.

Bu gapni eshitib, Sarvar o‘zini yomon ko‘rib ketdi. Chunki u har ikki gapining birida otasini qo‘shib gapurardi. Shuning uchun sekingina:

– Uzr, men bilmagandim, – dedi.

Bu gaplardan so‘ng Sarvarning ko‘nglidagi og‘riq qayta jonlanganday bo‘ldi. Chunki u 2 yil avval onasidan ayrilgan, hozir esa o‘gay onasi bilan yashar edi. Shuning uchun ham u Jasur meni hammadan ham ko‘proq tushunadi, deb o‘yladi va unga o‘zining dardlarini aytib berdi.

Bu voqeadan keyin ular qalin do‘stlarga aylanishdi.



**Madinabonu
Ahmatboyeva**
11-sinf o'quvchisi

ISTE'DOD

Qo'ng'iroq chalinadi... Shosha-pisha kelayotgan Ali darsga kech qoladi. Albatta, ustozining tanbehini eshitganidan so'ng, joyiga o'tiradi. Aynan o'sha vaqtning o'zida u uyga vazifa berilganini va tekshirilayotganini ko'radi. Eh... endi nima qilish kerak? Axir ularga butun boshli hikoya yozish berilgan-ku! U shunchaki bahona qidirmoqchi edi. Lekin ustozining g'azabini hech qanday bahona to'xtata olmasdi. Hammaning ko'z o'ngida dars qilmagan o'rtoqlarining otanasiqa qo'ng'iroq qilib direktor huzuriga chaqirishidan barcha qo'rqardi. Ayniqsa, beshta o'quv-

chidan keyin doskaga chiquvchi Alini, uning baxtiga jurnalda o‘rtada turardi. Demak, hali imkon bor, balkim eplar. U yonidagi Nargizadan oq qog‘oz so‘radi. Eng yomoni uning partadoshi sinfdagi, yo‘q, yo‘q dunyodagi eng qizg‘anchiq qiz edi. Uni, menimcha, hamma yomon ko‘rardi. Shunday bo‘lsa ham unga o‘z qog‘ozidan berdi. Qanday qilib deysizmi, buning ham o‘z sababi bor. U Alining ulgurmasligiga ishonardi va ustidan kulish uchun ataylab berdi. Ali bunga parvo qilmasdi, u qog‘ozni qo‘liga olishi bilan yozishni boshlab ketdi. Bir tomondan har bir vazifa bajarmagan o‘quvchidan ustozining g‘azabi ortib borsa, bir tomondan ularning uzoq bahonalariyu ota-onalarining qo‘ng‘iroqni ko‘tarishmagani Ali uchun ko‘p yozishga ajoyib imkon berardi. Shu bilan besh daqiqadan so‘ng Alining navbati keldi. Nargizaga o‘xshab u shuncha vaqtida ulgurrolmagan, omadsiz deb o‘ylasangiz adashasiz, u nafaqat hikoya yozdi, balki hikoyani rasmlari-gacha chizib tasvirladi. Ustozi katta ola ko‘zlarini bilan “Palonchiyev Ali” deya doskaga chaqirdi. Uning bu dag‘dag‘asi boshqalarnikiga qaraganda ancha baland tovushda chiqqandi. Buning ko‘p

sabablari bor, bulardan biri, birinchi darsga kech qolib ko‘ziga baloday ko‘ringani. U uyga berilgan vazifani bajarmaganiga ishonchi komil edi, lekin qo‘lidagi varaqni ko‘rib undan ko‘rsatishini va so‘zlab berishini so‘radi. U hikoyasini shunchalik berilib, intonatsiyalar bilan aytdiki, xayoli boshqa joyda bo‘lgan o‘quvchilar ham uni diqqat bilan tinglashdi. U hikoyasini tamomlagach, chizgan rasmlarini ta’riflab berdi. Uning bu hikoyasi shunchalik mazmunli ediki, bunday hikoyalarni faqat buyuk yozuvchilargina yoza olardi. Shuning uchun ham ustozи unga ishonmadi va undan bu hikoyani kimdan o‘g‘irlaganini so‘radi. Shu payt ustozning jahlini battar chiqarishning eng zo‘r vaqtি edi. Paytdan foydalanish uchun Nargiza o‘rnidan turib, “Ustoz, siz unga ikki qo‘yishingiz kerak, u uyga berilgan vazifani qilib kelmagandi, shu yerda yozib olishga ulgurib qoldi, nahotki indamasangiz?”.

Ustozi Aliga qarab:

– Shunday o‘quvchim bor ekan bilmay yurgan ekanman-da. Tezroq ota-onangni chaqirishimiz kerak.

– Nega ustoz, vazifani shu yerda qilgan bo‘lsam ham har holda bor-ku. Ota-onamni chaqirmang, iltimos.

– Bilaman, tushunaman, ammo rahmatni kim-ga aytaman? – dedi o‘qituvchisi kulib. Ali hayron qoldi.

– Bunday iste’dod egasining ota-onasi ham bundan xabardor bo‘lsin deyman-da. Hali bu hikoyalarining eng taniqli jurnal va gazetalarda chiqaramiz, ajabmas mashhur bo‘lib ketsang.

Shu vaqt hammaning nigohi Aliga tushdi. U pomidorday qizarib nima deyishni ham bilmasdi.

– Ustoz, men o‘z qo‘llarim bilan unga varaq berdim yozishi uchun, axir o‘rtog‘im-ku – dedi Nargiza to‘satdan. Shunda hamma birdaniga kulib yubordi.

Bilasizmi, agar o‘sha vaqtda ustozim bo‘lmaganida, men hech qachon hikoya yozmasdim, biror bahona to‘qib vazifalarni qilmay kelardim. Ular menga hech kim, hatto o‘zim ham ko‘ra olmagan ichki iste’dodimni ko‘rsatdilar. Balki, u ustoz bo‘lmaganida hozir bu minbarlarda turib, nutq so‘zlamayotgan bo‘lardim. Buning uchun sizga ming rahmat, ustozim, poyingizga doim ta’zimdamiz!



Gulasal Omonova

11-sinf o‘quvchisi

OTA

Bir kuni ko‘ylak xarid qilish maqsadida bozorni aylanib yurgan edim. Qo‘qqisdan ko‘zim bir jajji qizaloqqa tushdi. Uni dadasi ko‘tarib olgan, onasi esa farzandiga oyoq kiyim tanlash bilan band edi. Nogahon ko‘z o‘ngimda yoshligimda dadam bilan o‘tgan damlarim gavdalandi. Dadamlar chet elga ishslash maqsadida ketylotganlarida men uch yashar qizcha edim. Ular menga ketishlaridan avval bo‘yim barobar qorbobo yasab bergandilar. Bu men uchun unutilmas voqeа bo‘lib qolgan.

Yana ko‘chamizning boshida Eshmamat bobo-ning uylarining yonida har qish faslida katta muz bo‘lardi. Dadamlar meni har safar o‘tganimizda, sirpantirib o‘tardilar. Bu menga juda yoqardi. Keyin har doim biron-bir yoqqa borsak, masalan, ammamnikiga, do‘konga yoki qo‘shti qishloqqa, dadam meni velosipedlarida olib yurardilar. O‘sha vaqtarda shunchalar baxtiyor edimki, hech tasavvur qila olmaysiz. Bu xotiralar qalbimda abadiy yashaydi!

Mening hayotimda bunday eslab qolishga, eslaganda yig‘lashga sabab bo‘ladigan voqealar ko‘p bo‘lgan. Ammo bir voqeа hech qachon yodimdan chiqmaydi. Qish. Tashqarida qor dalalarni g‘ubordan forig‘ qilib, tinmasdan yog‘ayotgan edi. Men o‘shanda ikkinchi sinfda o‘qir edim. Ustozim menga she’r yod olib kelishni buyurgan edilar. Chiroq o‘chib qolgan, men shamning milt-milt etib, pirpirab turgan yog‘dusida she’rni takrorlayapman, takrorlayapman, ammo yodlay olmayapman. Oxiri ko‘zimdagи yoshlарim yuzimni yuva boshladi. Shunda dadam:

“Nima bo‘ldi, qizim? Nega yig‘layapsan?” – deb savol berdilar. Men birdaniga qizishib ketib:

“O‘tgan yilda ham faqat o‘qidim, she’r yodladim. Bu yil ham shu ahvol. Qachon men o‘qishdan qutular ekanman, bilmadim”, deya bolalarcha fikrimni aytdim. Endi eslasam, shu so‘zlarimni aytganimdan afsuslanib ketaman. Chunki hozirgi kunda eng yaxshi ko‘rgan mashg‘ulotim kitob o‘qish. Dadamlar menga: “Qizim, o‘qisang, ilm o‘rgansang, hayotda hech qiyinchilik ko‘rmaysan. Boshingga Ollohimning biron sinovi tushsa, tushkunlikka tushmasdan, muammo-larni hal etasan”, degan edilar. Keyin men ham ko‘zimdagи yoshlarni artib, she’rni o‘zgacha ruh, shiddat bilan yodlashga harakat qilgandim. Biz dadam bilan birga she’rni yodlagan edik. Ertasi kuni she’rni ustozimga hammadan ko‘ra yaxshi aytib berib, ikkita besh baho olgan edim.

Shunday qilib, dadam menga hayot yo‘llarining bir tekis bo‘lmasligini, unda yiqilish ham mumkinligini, yiqilganda tushkunlikka tushmasdan turib, yana yo‘lda davom etish kerakligini o‘rgatganlar. Men shu kunga qadar ko‘p yutuqlarga erishdim. Eng muhimi, ijod baxtiga mu-yassar bo‘ldim. To‘g‘ri, ko‘p yiqildim, ammo

tushkunlikka tushmadim. Aksincha, bir marta yiqildim, boshqa yiqilmayman, deya o‘zimga taskin berdim.

Ota shunday zotki, yiqilganda qo‘lingizdan tutadi, yig‘lasangiz yoshingizni artadi, kulsangiz sizdan ko‘proq quvonadi. Bilaman, dadam mening uchun har narsaga tayyorlar. Men do‘stilarimdek kiyinishim, ulardek yeb-ichishim, yaxshi ta’lim olishim uchun u kishi o‘zga yurtlarda Vatan, oila sog‘inchi ila yashaganini, ertalabdan kechgacha sovuqda ishlaganini, doim ko‘p qavatli binoning yuqorisida xavfdan xoli bo‘lmaganini ham bila-man.

Quyosh... U bo‘lmasa, hayot yo‘q. Borliqqa o‘z nurlarini sochib, barchani xushnud aylaydi. Quyoshning nurlariga hatto tik qaray olmaymiz, u sochayotgan yog‘du ko‘zimni oladi. Ota ham Quyosh. Men uchun shunday. Ota-onam hayo-timning oy-u quyoshi, borlig‘i. Ular bor ekan, me ning umrimni hech qachon bahor tark etmaydi.

Endi, men o‘sha mittigina qizaloq emas-man, o‘n yettiga to‘ldim. Endi, otamning ayt-gan so‘zlari hech qachon qulog‘imdan ketmay-

di. Shoirning do'sti qalam va qog'oz derdilar. Ammo mendek shoiraning do'sti otasidir. Ha, o'sha, farzandi uchun sovuqda qo'llari qotib qor-bobo yasagan, qizini muzlardan sirpanadirib kul-dirgan, velosipedda qizi bilan sayr qilgan va eng muhimi qiziga ilm olishni o'rgatgan mehribon ota.

Yillar o'tadi, umr o'tadi, hammasi tugaydi, ammo otaning qiziga bo'lgan mehri, qizning xo-tirasidagi otasi bilan o'tgan damlar silsilasi umrbod mangu bo'lib qoladi.

Umr – oqar daryo. Umringizdagи suyan-chig'ingiz doim ota-onangiz bo'lib qolaveradi.





Nozima
Yoldosheva

11-sinf o‘quvchisi

QAYTAR DUNYO

Javoblarni o‘g‘irlar ekanman, ichimda alla-qanday g‘oliblik va ayyorona hislar hukm surardi. Men mакtabimizда bo‘lib o‘tayotgan mакtablararo kitobxonlik musobaqasining javoblarini telefonimga rasmga olib chiqayotgандим. O‘zi bunday qilish niyatim yo‘q edi. Ustoz menga bir hujjatni olib chiqishni buyurdi va beixtiyor ushbu hujjatlar orasidan musobaqa savollari va javoblarini ko‘rib qoldim.

Musobaqa tugadi. Biz anchagina katta farq bilan boshqa mакtablardan oshib ketgan edik.

Bizni taqdirladilar va keyingi shahar bosqichiga yo'llanma berishdi. Shunda boshqa bir maktabdan kelgan qiz turdi-da baralla: "Hammasi yolg'on, bular o'zining o'quvchilariga javobni aytib qo'yishgan". Mening sevimli, juda ham oq ko'ngil bo'lgan o'qituvchim Dilfuza opa: "Hurmatli qatnashchi, bu so'zingiz bilan biz o'qituvchilarni yomon otliqqa chiqaryapsiz. Axir biz o'qituvchimiz, bunday ishlar bizga yarashmaydi. Keyin bizning maktabda o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham bunday qabih emas".

Maktabdan chiqayotganda o'sha qiz boshqa maktabdoshlariga, boyagi gaplarini jahl ustida aytib turgan edi. Men uning yonidan "Ha, alam qilyaptimi?" deb kulib o'tib ketdim.

Naq oradan 6 oy o'tgandan keyin, yana bir musobaqa bo'lib, har bir maktabdan bir nafar o'qituvchi adabiyot sohasida bellashishi kerak edi. Bosh sovrin noutbuk. Imtihon topshirib chiqib, javoblarini kutib o'tirar edim. Beixtiyor yana o'sha qizni ko'rib qoldim. Birdan qatnashchilar chaqirilib, taqdirlash marosimi o'tkazilishi ma'lum qilindi.

3-o'rindagi qiz chiqdi va sovg'asi topshirildi. Men 2-o'rin ekanman. Menga ham yaxshigina sovg'a berilgandi. O'zimda g'urur va faxrni sezardim. O'z joyimga ketarkanman, o'sha qiz yonidan o'tib, "Xo'sh hali ham nohaqlik bo'lyaptimi? Bechoragina qizcha", deb o'tib ketdim. Joyimga o'tirib, 1-o'rinni kim olishiga qiziqib, kutib o'tirardim. Hakamlar tomonidan "Hakimova Mahbuba 1-o'rin uchun noutbuk sovg'asi", deb baland ovozda e'lon qilindi. Sahnada esa o'sha qiz jilmayib turar edi...





Muxsisa
Oroqova
11-sinf o'quvchisi

CHO'PON VA FUTBOLCHI

Bir kuni Miraziz otasiga dedi:

- Dada, judayam futbol o'ynagim kelyapti, iltimos, koptok olib bering.
- O'g'lim, nima qilasan koptok o'ynab, undan ko'ra bor, qo'ylarga suv ber.
- Xo'p....

Miraziz shunday dedi-yu, indamay chiqib ketdi. Miraziz bir hafta davomida otasining so'zlarini astoydil bajardi va ko'chada o'ynayotgan do'stlariga havas bilan qarab dedi:

- Dada, endi koptok olib berasizmi?
- O‘g‘lim, yosh bola emassan-ku axir, kim aytadi seni yaqinda birinchi sinfga boradi deb, – dedi-da beparvolik bilan ishida davom etdi. Yillar o‘tib, Miraziz yaxshi cho‘pon bo‘ldi. Otasi esa har doim choyxonada o‘tirib, terma jamoamizda yaxshi futbolchi yetishmasligini iddao qilardi.





**Dilnura
Nuriddinova**
11-sinf o‘quvchisi

BEMINNAT YORDAM

Shom payti edi. Ishdan chiqib uyga mashinanma qaytayotgan edim. Asablarim toliqqan, tezroq uyga borib, dam olishni o‘ylardim. Yo‘l yarmiga yetganimda mashinam to‘satdan to‘xtab qoldi. O‘zim ustachilikdan xabarim yo‘qligi uchun darrov ustaxonaga telefon qildim. Turgan manzilimni aytib, tezroq kelishlarini iltimos qildim. Ular menga o‘ttiz daqiqada yetib kelishlarini aytishdi. Kutaverib sabrim tugadi. Oxiri oldimga bir mashina kelib to‘xtadi. Ichidan chiroyli, toza kiyungan bir bola tushdi. Men unga qarab: “O‘zi

bir qora ishda ishlaydigan usta bo‘lsa, nega bunaqa kiyinib olgan?” deb o‘yladim.

— Assalomu alaykum, aka — dedi u menga muloyim ohangda.

— Vaalaykum assalom. Buncha kuttirdilaring odamni — dedim zarda bilan.

U nim tabassum qilib mashinani ko‘rishga tu-shib ketdi. Charchab turganim uchun unga qo‘pol ohangda:

— O‘zi ustachilikdan xabaring bormi? — dedim. U esa:

— Ozgina xabarim bor, — deb javob berdi.

Oradan o‘n daqiqa o‘tar-o‘tmas u menga mashinani o‘t oldirib ko‘rishimni so‘radi. O‘t oldirdim, ishladi. Uning oldiga borib, yuz ming berdim:

— Yuz ming. Undan ko‘p bermayman, — deb turib oldim. U esa:

— Kerak emas, aka. Roziman — deb mashina-siga o‘tirib ketdi.

Hayron qoldim. Men ham endi ketayotgandim oldimga yana bir mashina kelib to‘xtadi. U menga o‘zining usta ekanligini aytdi. Shunda

men u bola xolis inson sifatida menga yordam bergenini tushunib yetdim. Unga qilgan muomaladan uyalib ketdim. Ustaga esa ketaverishini, mashinam esa tuzalganini aytdim. U esa menga yuz ming berishim kerakligini aytdi. Men hayron bo'lib sababini so'radim. U:

— Bizning kelishimizning o'zi yuz ming, — dedi.
Jahlim chiqdi. Ustaga pulini berib, yo'limda davom etdim.





**Gulshoda
Do'sanova
11-sinf o'quvchisi**

QAYTAR DUNYO

Bizning uyimizdan taxminan yigirma chiqrimcha narida besh kishidan iborat bir oila yashaydi. Halim buva, Shokir aka, Feruza kelinoyi va ularning ikki farzandi Salimjon va Sodiqjon.

To'g'risini aytsam, biroz vaqt oldin Halim buvaning hovlisini o'tlardan tozalayotganiga ko'zim tushib qoldi. O'zimga "O'g'li va kelini qayerda ekan?" deya savol berdim. Keyin hammasi ma'lum bo'ldi. O'g'il otasining qo'lidan ishini olib, mehribonlik qilish o'rniga ayolining uyiga hasharga ketibdi. Ota esa pokizalik xohlab, hamma joyni chinni chiroq qilib tozaladi.

Beixtiyor uyga qadam bosdim. Kelin esa aqallি ro‘zg‘orni ham sarishta saqlamas ekan. Qarasam hovli to‘zigan, har joy o‘t, bir joy-bir joyda kiyimlar kir bo‘lib yoyilib yotibdi. Yana allaqayerda po‘choqlarning ustida pashshalar aylanib yuribdi. Men bundan juda hayron bo‘ldim. O‘g‘il va kelin rohatda, ota esa ularning yo‘liga intizor. Sovuq-issig‘idan xabar oluvchi mehriboni yo‘q. Ha-shar tugab kelin va o‘g‘il uyga qaytdi. Halim buva lom-lim demadi. Lekin Feruza kelinoyi Halim buva ustidan Shokir akaga shikoyat qilardi. Ota mehr ku-tib yashaydi, lekin hech kimga bildirmaydi. Nafa-qaq puliga olgan ko‘ylagini ko‘rsatib: “Qo‘y, desam ham Shokirjon o‘g‘lim yangi ko‘ylak olib kelibdi, mehribon-da”, deb maqtanib qo‘yadi. Buni hech kim bilmasdi, yolg‘iz men bilardim. Oradan vaqt o‘tib, Halim buva dunyoni tark etdi.

Mana oradan yillar o‘tdi. Shokir aka va Fe-ruza kelinoyi qaridi. Kelinlari kun bermay, uydan chiqarib yuborishdi. Natijada bir paytlar qilingan muomala o‘z o‘g‘lidan besh barobar bo‘lib qaytib keldi. Endi afsusdan foyda yo‘q edi. Lekin ularning o‘g‘illari bilmaydiki, ularga ham shu munosabatlar bir kun emas, bir kun qaytib keladi. Zero, bu qaytar dunyodir.



**Zuhra
Inog'omova
11-sinf o'quvchisi**

YAXSHILIK

Ko'chadagi kafelardan birida taomlanish uchun o'tirgandik. Bir odam telefonda gaplashib bo'lib, quvonchdan qiyqirib sakradi va ofitsiantni chaqirib:

Hammaga mening nomimdan kabob tarqa-ting! O'n sakkiz yil intiqlikdan keyin bugun ish-xonamda lavozimimni ko'tarishdi. Endi men od-diy ishchi emas, boshliq lavozimidaman! – dedi.

Uch-to'rt kundan keyin mashinamga yoqilg'i to'ldirish uchun benzin quyish shoxobchasiga bordim. U yerda o'sha odamni boshqa ishchilarday ishlayotganini ko'rdim. Tashqi ko'rinishi

boshqalarnikiga o‘xshamasdi. Uni tanigan zahotim yoniga borib, o‘sha kuni qilgan ishiga ajablanib ishora qildim. Erkak tortinib shunday dedi:

– O‘sha kuni kafeda mening oldimdagи stolga kelib o‘tirgan keksa er-xotin o‘zaro suhbati qu-log‘imga chalindi. Onaxon choliga “Kabob yeyllik, anchadan beri yegim kelib yurgandi”, – dedi. Otaxon esa ayolidan ko‘zlarini olib qochib “Hozir kabob ololmaymiz, pulimiz faqat sho‘rvaga yetadi, xolos”, – deya javob berdi. Shu orada men telefonda gaplashganday bo‘lib hammaga kabob buyurtma qildim.

– Faqat o‘sha keksa juftlikka olib bersangiz bo‘lardi, hamma xo‘randalarga buyurtma qilishning nima keragi bor edi? – deb so‘radim undan.

Erkakning javobidan ko‘zlarim yoshlandi:

– Faqat ularga olib bergenimda otaxon ayo lining oldida xijolat bo‘lardi. Shuning uchun hammani biday mehmon qildim. Bundan tashqari, baxtimga o‘sha kuni oylik maoshimni olgan edim. Mening pulim ketsa ketsin, bir erkakning izzat-nafsi sinmasin!



**Ro'zmatova
Mamlakat**
11-sinf o'quvchisi

BETAKROR SOVG'A

Sovg'a. Sovg'a barcha uchun turli kayfiyat bag'ishlovchi vosita. Hammaga har xil sovg'a yoqadi. Mening hayotimda ham sovg'a bilan bog'liq unutilmas, ajoyib va mo'jaz voqeа bo'lib o'tgan.

Qish kunlari edi. Men birinchi sinfda o'qirdim. Maktabimizda savodxonlik bayramiga tay-yorgarlik ko'rilib yordamda qo'shilishim uchun menga malikalar toji kerak edi. Uyga kelib toj kerakligini aytdim. Dadam ishdan kelgach, ularga munchoqlari yonadigan toj olib berishla-

rini iltimos qildim. Dadam: “Kech bo‘lib qoldi. Sen hozir uxlay qol. Malikalar toji haqida ertaga gaplashamiz, oppog‘im”, – dedilar. O‘sha kuni tong saharlab uyg‘onib qarasam, dadam allaqachon ishga ketgan ekan. Men ham mакtab tomon oshiqdim. Maktabdan qaytib xonamga kirsam, ko‘zgu oldida men xohlagan toj turgandi-yu, xo-nada hech kim yo‘q edi. Birdan eshik ortidan dadam chiqdilar, qo‘rqib ketdim, yugurib borib dadamni quchoqladim va “Rahmat, dadajon!” dedim. O‘sha payt mendan baxtli odam yo‘q edi.

Shu-shu bu sovg‘a dadamdan menga so‘nggi va takrorlanmas sovg‘a bo‘lib qoldi!





**Asila
Usmonova**

11-sinf o‘quvchisi

AYOL

O‘n sakkiz yoshga to‘lar-to‘lmasdan uni tur-mushga berishdi. Uni o‘qitishmadi, oz bo‘lsa ham erkin, cheklovlsiz yashashga imkon berishmadi. U indamadi, qarshilik qilmadi, rozilik berdi. Chunki u ota-onasini o‘z baxti evaziga bo‘lsa-da rozi qilishni shart deb bilardi. Chunki u oqila farzand edi...

Turmush o‘rtog‘i tomonidan yuzining qu-loq aralash qismiga qarata zarba olaverib, qu-log‘idagi tilla ziraklar o‘n yil deganda oxir-oqibat sindi. Lekin u sinmadi. Qiziq, shunday mustahkam metall chidolmagan shapaloq-u mushtlarga u qanday chidab kelmoqda ekan? Nima

shunday mustahkam metalldan ham ko‘ra, uning irodasi, uning ruhiyati shunchalik mustahkammi? Ziraklar sindi – dosh berolmadi. Ammo uning umidi sinmadi. Hali ham hayot uchun, farzandlari baxti uchun kurashmoqda edi. Chunki u ayol edi. Ona edi...

HAYOT

Kitob javonlari orasidagi yo‘lakda, kitoblar-
ga ko‘milgan holda bir bola kitob o‘qib o‘tiribdi.
Istarasi issiq, bir qarashda tarbiyali oila farzandi
ekanini bilish qiyin emas. Lekin yuzida qanday-
dir g‘am bor. Atrofidagi insonlarga tik boqishga
qo‘rqadi. Har qarashda insonlar nigohidan olib
qochiladi u ko‘zlar. O‘zini negadir aybdordek
his qiladi. Nafas ololmay qoladi. Bo‘g‘iladi. Ki-
toblarni yopadi. Va asta nigohini yopilgan kitob-
lardan uzib, atrofga qaratadi. Xuddi gunoh qilib
qo‘ygandek darrov devorga boshini suyab, ko‘z-
larini yumadi, chuqur xo‘rsinadi.

Va...va keyin javonlar orqasiga “yashirib”
qo‘ygan bir juft qo‘ltiqtayoqlarini oladi. Inson-
larning rahmi kelmasin deya, hech qanday qi-

yinchiliklarsiz turishga harakat qiladi. Uddalaydi ham... Nigohini atrofidagi o‘z tengdoshlaridan yashirish uchun kepkasini bostirib kiyib oladi. Kitoblarni kutubxonachiga topshiradi-da, bir oyoq bilan qo‘ltiqtayoqda yurayotganini ham bildirmay, tezda, sassiz qadamlar bilan zalni tark etadi. O‘scha paytda “Bu inson nega odamlardan ko‘zini olib qochyapti?”, “Nima dardi bor bu insonning?”, “Nega buncha g‘amgin?” degan o‘ylaring bir onda tarqab, yuzingda hayrat ifodasi qotib qoladi.

Nimanidir his qilishga ojiz bo‘lib qoladi bu qalbing. Nigohing uzoq vaqt bir nuqtaga tikilgancha qotib qoladi. Xuddi xayollaring kabi...

Birdan hayotga qaytgandek, hammasini eslay boshlaysan. O‘tirgan stolingdan otilib turib, qo‘lingdagi kitobni kutubxonachiga topshirasan-u, kartangni olishni ham unutib, shoshib zinalardan pastga yugurasan.

Shu onda to‘xtaysan. “Nega yuguryapsan?”, “Nima uchun?”, “Tasalli berasanmi?”, “Nima o‘zgaradi?”, “Nimadir qila olasanmi u inson uchun?”, degan savollar miyangga quyiladi. Shashtsiz orting-

ga qaytsasan. Atrofingga qaraysan. Hamma o‘z ishi bilan bandligini ko‘rasan, xo‘rsinasan.

“Nima uchun insonlardan qochyapti? Baribir hech kim e’tibor bermagan ekan shuncha payt, nega qo‘rqdi?” deysan o‘zingga o‘zing. Shu tobda insonlarning ichki olamiga qiziqishing ustunlik qilib, kutubxonachi ayolning stoli ustiga haligina o‘sha inson tomonidan qo‘yib ketilgan kitoblarni olasan. Odamlardan qochish maqsadida, bir bur-chakka, javonlar orasiga borib o‘tirasan. Ko‘zoy-nagingni taqib, birinchi kitobni ochib ko‘rasan. Ruhiyatga doir. Mundarijani ochib, haligi savollaringga javob olish maqsadida o‘zingga kerakli sahifani ochasan. O‘qiysan. Ushbu sahifada qanday qilib hayotga qaytish haqida yozilgan, psixologlar tomonidan maslahatlar berilgan, turli xil mashqlar o‘rgatilgan. Keyingi betini ochasan. Kitob varag‘i nam, quriy deb qolgan bo‘lsa-da, baribir varaqda dog‘ qolgan... ko‘z yoshlar...

Shu tobda ko‘zoynaging orasidan ikki tomchi yosh yumalab tushadi. Faqat endi kitoblarga emas, kitoblar o‘sha paytda ko‘z yoshlaringni ko‘taradigan ahvolda emasdi... Sen olishingdan oldin ularga “kimdir” o‘z hikoyasini bayon qilib bo‘lgandi...



Muxlisa
Berdiqulsova
8-sinf o‘quvchisi

JODUGARLAR

(*Tarjima*)

Roald Dall

(*Jodugarlar haqida eslatmalar*)

Ertaklarda jodugarlar har doim bema’ni shlyapa va qora yopinchiq kiyib yurishadi, bundan tashqari uchar supurgilarda uchishadi. Lekin bu ertak emas. Bu haqiqiy jodugarlar haqida. Haqiqiy jodugarlar haqida bilishingiz kerak bo‘lgan muhim narsa mana shu. Diqqat bilan tinglang.

Haqiqiy jodugarlar odatiy kiyimlar kiyishib, oddiy ayollarga juda ham o‘xshashadi. Ular oddiy uylarda yashashadi, oddiy ishda ishlashadi. Mana nimaga ularni tutish qiyin?! Haqiqiy jodugarlar bolalardan siz o‘ylaganingizdan-da ko‘proq nafratlanishadi.

Haqiqiy jodugarlar vaqtlarining muayyan qismini bolalardan qutulish uchun fitna uyushtirish bilan o‘tkazishadi. Ularning maqsadi bolalarni birma-bir yo‘q qilishdir. Hattoki u supermarketda hisobchi bo‘lib, yo tadbirdor uchun biror nima yozayotgan yoki ajoyib mashinani haydayotgan bo‘lsa-da (qisqasi, shu kabi ishlarning barini qila oladi), uning fikr-u xayoli fitna va makrda bo‘ladi. Qo‘srimchasiga, u qotillik, qonxo‘rlik va shu kabi ishlarning payida ham yuradi.

“Qaysi bola?”, “Kimni kelgusi nayrangim uchun tanlasam bo‘ladi?” deb o‘ziga o‘zi kun bo‘yi savol berib yuradi.

Haqiqiy jodugar bolalarga fitna uyushtirishdan siz shirinlik yoki meva yeganingizdagagi lazatchalik lazzat oladi. U bitta bolani bir haftada yo‘q qilishni taxmin qiladi. Agar mabodo vaqt

cho‘zilib ketgudek bo‘lsa, u vaysaqi bo‘lib, no-liyveradi-noliyveradi. Haftasiga bitta bola, qa-rabsizki, yiliga ellik ikkita bola!

Nishon ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Bechora bola o‘rmonda ovchi qushni ta’qib qilgandek ta’qib qilinadi. Jodugar ohista qadam qo‘yadi. U sekinlik bilan harakat qiladi. Yanada yaqinroq boradi, oxirida, hammasi tayyor bo‘lganda..... pist... va u hujum qiladi. Uchqunlar uchadi. Alanga o‘t olar, yog‘ qaynar, kalamushlar chiyillar va bola g‘oyib bo‘ladi.



Jodugar... Siz tushunishingiz kerak. Ular hech qanaqa sehrli tayoqchani silkitmaydi, pi-

choq tiqmaydi yoki to‘pponchadan o‘q uzmaydi. Bu ishlarni qilgan odamlarni politsiya qo‘lga ola-di-da.

Jodugar hech qachon qo‘lga tushmaydi. Shuni yodda tutingki, uning barmog‘ida sehr va uning qonida tug‘ma “raqs” bor. U toshlarni qurbaqa kabi sakrata oladi va hattoki alanganing tili-ni suv yuzasi ustida ham pirpirata oladi.

Bu sehrli kuchlar juda qo‘rqinchli.

Baxtimizga hozirgi vaqtida dunyoda jodugarlar ko‘p emas. Ammo hali ham sizning asabiy-lashishingiz uchun jodugarlar yetarlicha topila-di. Angliyada taxminan 100 tacha jodugar bor. Boshqa mamlakatlarda undan ham ko‘p, ba’zila-rida unchalik emas. Ammo bu dunyoda jodugarlardan xoli makon yo‘q.

Jodugarlar har doim ayol kishi bo‘ladi. Men ayollar haqida yomon gap gapirmoqchi emas-man. Ko‘p ayollar juda ajoyib. Ammo faktlarga tayangan holda ayta olamizki, jodugarlarning bari ayol, ularning orasida umuman erkak zoti yo‘q.

Boshqa tomondan olib qaraganda, kentavr har doim erkak bo‘ladi. Shunday qilib, albatta,

devlar ham. Ikkalasi ham xavfli. Lekin ular haqiqiy jodugar kabi xavfli emas.

Bolalar qanchalik tashvishlansa, jodugar shunchalik yerdagi xavfli mavjudotga aylanadi. “Nima uni yanada xavfliroq qiladi?” degan savolga ayta olamizki, u umuman qo‘rquinchli kimsaga o‘xshab ko‘rinmaydi. Hattoki siz barcha sirlarni bilsangiz ham (siz bu haqida bir lahzada bilib olasiz), jodugarga tikilib qarab tursangiz ham, u oddiy ayolga o‘xshab ko‘rinaveradi. Agar yo‘lbars o‘zini katta-katta qiyshiq tishli itga aylantirishga qodir bo‘lsa, siz balki uning oldiga borib, boshiga sekingina urib qo‘ygan bo‘lardingiz va balki bu hayotingizning oxiri bo‘lar. Bu jodugarlar bilan bir xil. Ularning barchasi muloyim ayolga o‘xshab ko‘rinadi.

Bu suratni oqilona tahlil qilishga harakat qilib ko‘ring. Qaysi ayol jodugar? Bu qiyin savol, ammo hamma bolalar javob berishi kerak.

Barchasini bilishingizga qaramay jodugar hozirgi vaqtda yoningizda yashayotgandir. Yoki u bugun ertalab avtobusda o‘tirgan shahlo ko‘zli ayoldir. U balki yorqin kulgi bilan sizga ko‘cha-



da tushlikdan avval oq qog‘ozga o‘ralgan shirinliklarni taklif qilgan o‘sha ayoldir. U balki sizni o‘ynatgan yoki shu so‘zlarni o‘qishni o‘rgatgan maktabdagi ustozingizdir. Ustozingizga e’tibor bilan qarang. Balki u sizga maslahat berarkan ma’nosiz jilmayayotgandir. Ehtiyot bo‘ling! Sizni o‘ldirishiga yo‘l qo‘ymang. Bu uning fikr-u xayolida bo‘lishi mumkin. Men, albatta, ustozingizni haqiqiy jodugar demoqchi emasman. Menning aytmoqchi bo‘lgan gapim shuki, u jodugar bo‘lishi ham mumkin...

Adabiy-badiiy nashr

Abdulla Qodiriy

nomidagi

Fjod maktabi

o‘quvchilarining ijodidan

namunalar

Muharrir Said Ashirov

Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov

Musahhihlar: Dono To‘ychiyeva, Iroda Umarova

Kompyuterda sahifalovchi Zilola Aliyeva

Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2024-yil 6-mayda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 ^{1/32}, Times New Roman garniturasi.

Ofset bosma. 4,9 shartli bosma taboq. 3,8 nashr tabog'i.

Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.

Bahosi shartnomaga asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69